



Nargiza ABDULLAEVA,

PhD, Assoc. Prof., Department of English Linguistics, NUUz,

Elnora MELIKOVA,

2nd year student of master's degree, Faculty of Foreign Philology, NUUz.

E-mail: 6052789@mail.ru, elusha-86@mail.ru

On the basis of review by DSc. D.M. Khoshimova, NamSU

LEXICAL – SYNTACTICAL FEATURES OF PRIMARY PREDICATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract

The article describes issues related to the analysis of lexical-syntactical features of primary predication in English and Uzbek languages. The article searches the structural and syntactical features of primary predications in both languages. As well as, we analysed works of E. Hemingway and T. Malik in order to identify similarities and differences of using primary predications in two languages. Moreover, predicative categories of objective modality and tense in two languages find their expression in the verbal component of predication. Views of world and local scientists on the primary predication in English and Uzbek were analysed. Furthermore, the primary predication phenomenon in two languages was investigated with examples.

Key words: lexical-syntactical feature, verb, primary predication, language, similarity, difference, finite verb, predicate.

ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРВИЧНОГО ПРЕДИКАТА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье рассмотрены вопросы, связанные с анализом лексико-синтаксических особенностей первичной предикации в английском и узбекском языках. В статье исследуются структурные и синтаксические особенности первичных предсказаний в обоих языках. Кроме того, мы проанализировали работы Э. Хемингуэя и Т. Малика с целью выявления сходства и различий использования первичных предсказаний в двух языках. Более того, в обоих языках объективная модальность и предикативные категории времени отражены в вербальном компоненте сказуемого. Проанализированы мнения мировых и местных ученых о первичном предсказании на английском и узбекском языках, и они проанализированы на примерах.

Ключевые слова: лексико-синтаксическая особенность, глагол, первичное предикация, язык, сходство, различие, конечный глагол, предикация.

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА БИРЛАМЧИ ПРЕДИКАЦИЯНИНГ ЛЕКСИК-СИНТАКТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o'zbek tillarida birlamchi predikatsiyaning leksik-sintaktik xususiyatlarini tahlil qilingan. Ushbu maqolada ikkala tilda ham birlamchi predikatsiyaning lug'aviy va sintaktik xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, E. Hemingvey va T. Malik asarlari tahlil qilinib, ikki tilda birlamchi predikatsiyaning ishlashining o'xshashlik va farqli tomonlari aniqlandi. Xususan, ikki tilda obyektiv modallik va zamonning predikativ kategoriyalari predikatsiyaning og'zaki komponentida o'z ifodasini topadi. Mazkur maqolada jahon va mahalliy olimlarning ingliz va o'zbek tillaridagi birlamchi predikatsiyaga oid fikr-mulohazalari tahlil qilindi. Bundan tashqari, ikki tilda birlamchi predikatsiya misollar yordamida o'rganildi.

Kalit so'zlar: leksik-sintaktik xususiyat, fe'l, birlamchi predikatsiya, til, o'xshashlik, farq, o'timli fe'l, predikat.

Introduction. Syntactic features are formal properties of syntactic objects, which determine how they behave with respect to syntactic constraints and operations (such as selection, licensing, agreement and movement). Syntactic features can be contrasted with properties, which are purely phonological, morphological, or semantic, but many features are relevant both to syntax and morphology, or syntax and semantics, and to all three components. Lexical semantic could be defined as the study of word meaning, but in practice it is often more specifically concerned with the study of lexical (i.e. content) word meaning, as opposed to the meanings of grammatical (or function) words. This means that lexical semanticists are most interested in the open classes of noun, verb and adjective and with more contently members of the

adverb and preposition classes (for instance over but not of). Lexical semantics is thus mostly exempt from considering issues that arise from the use of grammatical words, such as definiteness and modality [Mamatov M., 1990].

Language units have primary functions, such as predicativity, modality, confirmation or denial of the existence of an object in the world.

Primary predication establishes subject-predicate relations and makes the backbone of the sentence. The finite form of the verb expresses it. Sentences need a finite verb in order to be complete. Without a finite verb, a sentence would simply be a subject, or a subject and other parts of speech that do not express action and are not linked together properly. In other words, sentences do not function correctly without finite

verbs. Finite verbs are verbs that have subjects and indicate grammatical tense, person, and number. These verbs describe the action of a person, place, or thing in the sentence. Unlike other types of verbs, finite verbs do not require another verb in the sentence in order to be grammatically correct.

Research methodology. A number of methods have been used in this article, such as descriptive analysis, component analysis, semantic analysis, and contrastive analysis. Their choice is due to the fact that they are optimal for studying the lexical and semantic characteristics of complicating structures of predication in these two languages.

Materials and analysis. Due to the fact that multiple types of verbs can often exist in the same sentence, it is helpful to know some common instances of finite verbs that can help you identify them.

Third person singular present verbs ending in “-s”.

Any verb that has an -s ending for the third person singular present form is a finite verb. Non-finite verbs do not have tense, and thus never switch their endings to “-s” in the third person singular present form.

The exceptions to this are modal auxiliary verbs: can, could, will, would, shall, should, may, might, and must. Modal verbs also cannot take an “-s” ending for third person singular present; however, they are always finite. They come directly after the subject and before main verbs, and help to determine aspect, tense, and mood.

Here are some examples of finite verbs in the third person singular present form with -s endings:

He runs to the store every morning.

The girl swims in the ocean.

The footballer kicks the soccer ball at the goal.

He has three cars in her driveway.

Verbs that are functioning in the past tense (not past participles) are inherently finite. As we noted above, the majority of verbs have the same form for both past tense and past participle. These are known as regular verbs. To determine if a regular verb is in the past tense or is a past participle (and thus finite or non-finite), we have to examine how it is functioning in the sentence.

However, some verbs are irregular, and they have a past tense form that is separate from their past participle form. Here are a few examples of sentences using irregular verbs:

Be

My son was feeling unwell. (past tense finite)

He has been feeling unwell. (past participle non-finite)

Go

We went to the store. (past tense finite)

We had gone to the store. (past participle non-finite)

Fly

We flew to Moscow already. (past tense, finite)

We have flown to Moscow already. (past participle, non-finite)

There are quite a few irregular verbs, and there is no rule to how they are conjugated (which is why they are irregular).

Finite verbs often directly follow the subjects whose actions they are describing. This location allows for a clear connection between the subject and the verb it makes it easy for the reader or listener to understand that the verb is describing the action of the subject and not another word in the sentence. Here are some examples of finite verbs appearing directly after subjects in sentences:

“Nobody listened to the music.

“The old man drank his coffee slowly.

Across the field, the trees swayed in the wind.

Non-finite verbs, however, generally do not appear directly after the subject. This is because they are often not

directly describing the action of the subject, but are instead serving another grammatical purpose in the sentence.

Discussions. Primary predication is a wider notion than predicate, and it is used not only in the field of linguistics but also in the philosophy and logics. However, there is no problem with understanding the logical and grammatical predicate in those languages where both terms are rendered in the same way. For example, in the English language only one term primary predication is used compared to the Uzbek language, where two different terms to denote this notion in linguistics and philosophy or logics are used [Jespersen O., 1983; Akimova G.N., 1981; Mamatov M., 1990].

We share the ideas of M. Rasulova, who studied the problems of lexical categorization in linguistics, on the problem of categories in a language. Grammatical categories that represent general and essential features of the languages cannot reflect the differences between the languages, because the world is categorized differently in various languages. That is why, typological analysis in modern linguistics is to be carried out using different semantic categories, lexical and grammatical meanings that provide information about the world [Rasulova M.I., 2005].

The primary predication of a sentence is the part that modifies the subject of a sentence or clause in some way. The predicate specifies what the subject is, or does or tells what is done to the subject. Because the subject is the person, place or thing that a sentence is about, the predicate must contain a verb explaining what the subject does. It can also include a modifier, an object or a complement. Primary predication can be one verb or verb phrase (simple predicate), two or more verbs joined with a conjunction (compound predicate), or even all the words in the sentence that give more information about the subject (complete predicate).

Results. A predicate can be as simple as a single word that shows the action in a sentence. It is used to tell you what the subject of the sentence does.

From a logical-grammatical point of view, these constructions can be regarded as grammatically incomplete. The subject of primary predication does not have forms of grammatical categories such as person, number, tense, mood and aspect with the predicate. This incompleteness is a factor that syntactically differs them from sentences.

Look at a few of sentences in the English language. The subjects are underlined and the predicates are bold.

The old man drank his coffee slowly.

(Hemingway E., “The Old Man and the Sea”, 1952)

The subject of the sentence is “The old man”, the person being spoken about. Nevertheless, what is being conveyed or expressed about this person? The word that modifies the subject “The old man” is the past-tense verb “drank”, which is the predicate.

Below we analyze this sentence is taken from second series of “Shaytanat” books which is complicated by primary predication in the Uzbek language based on the basic concepts.

Yuqoridan turib qaraganida daryo suvi tiniq, sokin oqayotgan edi.

(Malik T., Shaytanat”, 1994).

Primary predication has its own motion-modifier; modifier shows how the river’s water was clear, quiet flowing. The subject of the sentence is “Suvi”, “oqayotgan edi”-nominal predicate, tiniq, sokin – modifier, daryo – possessive determiner, qaraganida – modifier and yuqoridan turib – modifier;

The syntactical structure of the sentences in English and Uzbek do not overlap with each other.

3. Perico gave it to me at the bodega,” he explained.

(Hemingway E., “The Old Man and the Sea”, 1952)

The subject of the sentence are "Perico" and "he". What is the point of the sentence? For the subject to specify an action that they do, which is the predicate. The predicate gave, explained.

4. Agar mollarni yashirmay o'z xohishingiz bilan topshirsangiz, eringizning gunohi yengillashadi.

(Malik T., "Shaytanat", 1994).

There are two primary predication here: 1) topshirsangiz; 2) yengillashadi. Primary predication has its own motion-modifier; modifier shows the manner of peoples solve the problem. The subject of the sentence is "siz", in hidden way, the predicates are "topshirsangiz, yengillashadi". The predicate overlaps in both languages, but the subjects of the sentences do not match.

5. The old man looked at him with his sun-burned, confident loving eyes.

The subject of the sentence is "The old man, the person being spoken about. The word that modifies the subject "The old man, is the past-tense verb "looked", which is the predicate.

In addition to simple predicates, there are also compound predicates. A compound predicate gives two or more details about the same subject and has two or more verbs joined by a conjunction.

For example:

6. The boy left him there and when he came back, the old man was still asleep.

(Hemingway E., "The Old Man and the Sea", 1952)

In this example, The boy and the old man are the subject and left him there, came back and was still asleep are the compound predicates joined by the conjunction and.

A complete predicate is the verb that shows the action and the modifying phrase that completes the thought, basically everything in the sentence that isn't the subject.

The primary predicate is in bold in each example, while the subject is underlined.

7. Bolalarning o'yinga qo'shmasliklari, ayniqsa, "kelgindi" deb chaqirishlari uning g'azabini keltirardi. (Malik T., "Shaytanat", 1994).

It is a simple extended sentence with two complex subjects and one predicate. "bolalarning o'yinga qo'shmasliklari" is the first subject and it consists of three words. Mainly two words "qo'shmasliklari" and "kelgindi" deb chaqirishlari" are considered as the subjects of the sentence and they are made from Gerund, Participle 1. Predicate is formed with compound verb.

8. Shomil boshqalarga nisbatan ko'proq unga ishonardi. (primary predicate-*ishonardi*, ko'proq-modifier, unga-object, boshqalarga-object).

(Malik T., "Shaytanat", 1994).

It is a simple extended sentence with a subject, a predicate, two objects and a modifier.

Subject of the sentence is Shomil and it is made from a common noun. Predicate is formed from a simple verb. Both are third person singular in past tense.

Conclusion / Recommendations. The lexical and syntactic features of primary predication in both languages have both similarities and differences. Similarities in their structure can be found in the participial constructions, but in other types, there are more differences, rather than similarities. Syntactically, primary predication in both languages serve for one purpose to enrich the informativeness of the sentence, but their position in a sentence can be different in the discussed languages, as they belong to different language groups. Nevertheless, features are essential to all explicit analyses.

REFERENCES

1. Abdurakhmanov G. The syntax of complicated sentence. In the collection articles: The structure and history of Turkic languages. Moscow: Nauka. 1981.
2. Akimova G.N. On the valency of transitive verbs in the Russian language // Theory of language. Methods of its analysis and teaching. Leningrad: Visshaya shkola. 1981.
3. Rasulova M.I. The basis of lexical categorization in linguistics. Tashkent: Fan. 2005.
4. Abdurakhmanov G. The syntax of complicated sentence. In the collection articles: The structure and history of Turkic languages. Moscow: Nauka. 1985.
5. Mamatov M. Secondary predicate in the structure of simple sentence in the Uzbek language. The dissertation abstract of the doctor of philological sciences. Tashkent. 1990.
6. Nurmonov A., Mahmudov N. Theoretical grammar of the Uzbek language. Tashkent: O'qituvchi. 1992.
7. Barkhudarov L.S. The structure of a modern English simple sentence. Moscow: Nauka. 2008.
8. Mahmudov N. Predication and polypredication // O'zbek tili va adabiyoti. Tashkent, volume 2. P. 18-21. 1982.
9. Jespersen O. A Modern English Grammar on Historical Principles. Part IV: Syntax. (Second edition) Third Volume, Time and Tense. Einar Munksgaard / George Allen & Unwin Ltd. 1983.
10. Chomsky N. Syntactic Structures (Second edition). Berlin-New York: Mouton de Gruyter. 2002.
11. Hemingway E. The Old Man and the Sea. New York: Charles Scribner's Sons, 1952. P. 127.
12. Malik T. Shaytanat - T.: Sharq, 1994.-B. 380.



Ойбарчин АБДУЛҲАКИМОВА,

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети таянч докторанти

E-mail: abdulhakimovaoybarchin@gmail.com

ТДЎТАУ профессори Н. Жабборов тақризи асосида

АБДУЛЛА ОРИПОВНИНГ ИЛК ЛИРИКАСИ ҲАҚИДА

Аннотация

Ушбу мақола Ўзбекистон қаҳрамони ва халқ шоири Абдулла Ориповнинг илк лирикаси таҳлиliga бағишланган. Шоирнинг ижодга бўлган адабий қараши, кизиқиши ва илҳоми акс эттирилган илк шеърлари таҳлиliga тортилган.

Калит сўзлар: шеър, адабий-эстетик тафаккур, ижодий ғоя, услуб, бадиият, поэтик ифода, илмий таҳлил

О ПЕРВЫХ ЛИРИКАХ АБДУЛЛЫ АРИПОВА

Аннотация

Эта статья посвящена анализу первых стихов героя и народного поэта Узбекистана Абдуллы Арипова. Анализируются первые стихотворения поэта, отражающие его литературное отношение, интерес и вдохновение к творчеству.

Ключевые слова: стих, литературно-эстетическое познание, творческая идея, стиль, художественность, поэтическое выражение, научный анализ.

ABOUT ABDULLA ARIPOV'S FIRST LYRICS

Annotation

This article is devoted to the analysis of the first lyrics by the hero and national poet of Uzbekistan Abdulla Aripov. The first poems of the poet, which reflect his literary attitude, interest and inspiration to the work, are analyzed.

Key words: poetry, literary-aesthetic knowledge, creative idea, style, artistry, poetic expression, scientific analysis.

Ўзбекистон қаҳрамони, халқ шоири Эркин Воҳидов Абдулла Орипов ижодига шундай баҳо берган эди: “Эскирмас, тўзимас сўз соҳибларидан бири Абдулла Ориповдир. Унинг илк шеърлари халқ қалбида акс-садо берган бўлса, энг янги сатрлари ҳам шундай сеҳрли кудрат билан жаранглаб турибди”. Ушбу фикрлардан кўриниб турибдики, замондош ва ҳаммаслаги бўлган шоир ижодини эътироф этиш баробарида, бу шеърятга ҳавас билан қараган. Бундан кўринадики, шоир адабий-эстетик қарашлари болалигиданоқ намоён бўла бошлаган ва ўзининг илк шеърларида ўз аксини топган.

Абдулла Орипов “Кўрган-биланларим” номли таржимаи ҳолида шундай ёзади: “Бу дунёнинг воқеа ва ҳодисалари хотирамда тўрт-беш ёшларимдан бошлаб қолган. Урушдан қайтмаганларнинг азалари-ю, қайтган-мажруҳ қишлоқдошларимнинг қўлтиқтаёқни тўқиллатиб юрганлари эсимда. Очарчилик, одамларнинг кунжара еганларини кўп кўрганман. Балки вақти-соати етиб, мен бу кечинмаларимни батафсил ёзарман. Чунки ҳозир мана шу саҳифаларга сиймайдиган ранг-баранг хотираларим жуда кўп”[1].

Шоирнинг болалигидаги хотиралари, эшитганларини кўрганлари ва албатта ўқиб ўрганганлари илк шеърятининг яратилишига асос вазифасини ўтаган. Масалан, ўн олти ёшида ёзган “Учқун” номли шеърига тўхталсак:

Гоҳо ҳаёл дарёсида жим
Ўтказаман тунларни бедор.
Баъзан ғализ жумла устида
Соатлаб бош қотирганим бор.

Бу ерда шоирнинг ижодга бўлган адабий қараши, кизиқиши ва илҳоми акс эттирилганини кўришимиз мумкин. Ижодкор сатрлари устида “соатлаб” ўтирганини

таъкидлаш борабарида, шеърятда нозик туйғулар, кечинмалар тасвирланишини ўқувчига мохирона етказди.

Шалодадек бўлса шеърларим,
Ёғду сочса мисли аланга.
Сидқидил-да қобил ўғилдек
Хизмат қилса элга, Ватанга.

Шоир ўз шеърларини нафис “шалода”га ўхшатиб, “ёғду сочиши”ни, “аланга”га айланишини ва Ватанга хизмат қилишини жуда-жуда истаган эди. Бу истак шоирнинг умри давомида муваффақиятли амалга ошганининг гувоҳи бўлиб турибмиз.

Ҳали бунга кўп гап бор, ҳали
Фикрларим таркок, туйғусиз...
Ҳали қанча тунларни яна
Ўтказишим керак уйқусиз...

Шоир қилган орзусини амалга ошиши ҳали узок эканлигини англаб етади. Унинг учун кўп изланиш, ўқиш ва ўрганиш заруратини ҳам сезади.

Ачинмайман, сизга, ўйларим,
Ачинмайман, сизга, узун тун.
Ачинмайман, чунки оташга –
Оқ йўл берар одатда учқун!

Шеърнинг якунида “учқун” “оташга” айланишини истаганлигини, орзу қилганлигини кўришимиз мумкин. Шоир ушбу шеърни ўн олти ёшида битган бўлса, фикр теран, орзу самимий, ният холис эканлиги кўринади ва айтишимиз мумкинки, шоир ижоди билан учқундан оташга айланди. Оташин шеър ва асарлари халқ қалбидан ўрин олди. Ана шундай ўрин олганлигига бир қанча омиллар мавжуд. Улардан биринчиси шоирнинг олий таълим даргоҳида таълим олган давридаги адабий қарашларидир. Шоир шундай эслайди: “Факультетимизда адабиёт тўғраги муттасил фаолият кўрсатарди. Озод

Шарафиддинов, Матёкуб Қўшжонов каби устозларимиз биз билан соатлаб машғулот олиб борардилар.

XX асрнинг таниқли инглиз ёзувчиси Жорж Оруэл шундай ёзган эди: “Биз яшаётган давр мустақил шахсни ёки мустақилдай туюлаётган иллюзияларни тугатиш хавфини туғдирмоқда... Истибод фикр эркинлигига шу даражада таъавуз қилмоқдаки, авваллари буни ҳатто тасаввур ҳам қилиб бўлмасди. Ҳисобга олишимиз керак, унинг фикр устидан назорати нафақат тақиқловчи, балки конструктивдир. Маълум бир фикрларни ифодалаш ёки айтишни тақиқламайди, аммо айнан қандай ўйлаш кераклигини айтиб туради. Шахс тарафидан қабул этилиши зарур мафкура пайдо бўлади. Шахснинг ҳис-эҳтиросларини бошқаради ва унга ўзни тутиш тарзини мажбуран қабул қилдиради. Шахс ташки дунёдан қанчалик мумкин бўлса, шу қадар узиб қўйилади. Мақсад уни таққослашдан маҳрум этиш ва сунъий муҳитда сақлашдир. Истибод давлати албатта фуқароларнинг фикр-ўй ва ҳис-туйғуларини худди уларнинг туриш турмушини назорат қилгандай назорат қилишга ҳаракат қилади”[2]. Оруэлнинг фикри остида ёзувчининг ижодий принциплари, ижод фалсафаси, адабиётнинг функцияси ҳақидаги қарашлари мавжуддир. Шоир Абдулла Орипов ҳам мустабид тузумда яшаб ижод қилди. Шоирнинг биргина “Тилла балиқча” шеърини олайлик:

Тухумдан чиқди-ю, келтириб уни
Шу лойқа ҳавузга томон отдилар.
Ташландик ушқоқ еб ўтади куни,
Хору хас, хазонлар устин ёпдилар.

Дунёда кўргани шу тор ҳовузча
Ва гавжум толларнинг аччиқ хазони.
Менга алам қилар, тилла балиқча
Бир қўлмак ҳовуз деб билар дунёни!

Ҳаётни қандай бўлса, шундай акс эттириш, уни бутун мураккаблиги билан қамраб олиш, халқнинг маиший аҳволини кам-қўстсиз тасвирлаш шоирдан аввало у ўз асарига объект қилиб олган инсон-халқ, ҳаёт-замон аҳволини яхши билишни, уни ўрганишда зийрак кузатувчанликни талаб қилади. Шоир Абдулла Орипов халқ ва замон аҳволини жуда яхши билган, зийрак кузатувчанлик чуқур бўлган ижодкор эди. Унинг юкоридаги шеърда, гуллаш тараққиётнинг белгиси бўлса, хору хас, хазон таназзулнинг белгиси эканлиги ифода этилган. Шоир ватани ва халқи таназзулга юз тутатганидан ташвишланади, азият чекади. Унинг ташвиши, қайғуси ана шу саккиз қаторда ифодаланганини кўришимиз мумкин.

1965 йили ёзилган ушбу шеър адабиётшуносликда кизгин баҳс-мунозараларга сабаб бўлгани маълум. Академик Матёкуб Қўшжонов асар таҳлиliga қуйдагича ёндашади: “Шеър ихчам, бор-йўғи 8 мисрадан иборат. Бироқ унда яратилган образ катта маъно касб этади... Тухумдан чиқибдики, балиқча ҳовузни кўрибди, ташландик ушқоқ еб куни ўтибди “хору хас, хазонлар” унинг устини ёпибди, “мудроқ толларнинг аччиқ хазони”ни шимибди... Фараз қилиш керакки, балиқча шу шароитда ўсади, сузиб ҳовузнинг у бети билан бу бетига сонсиз-саноксиз ўтиб қайтади. Унинг учун сувнинг энг каттаси шу ҳовуз. Дунёдаги кўз илғамас денгизу уммонларни, шарқираб оқадиган ирмоғу жўшқин дарёларни у тасаввур ҳам қила олмайди. Бутун дунёни мана шу қўлмак ҳовуз деб билади... Ахир, дунёни фақат ўзининг тор, бурқсиган дунёқараш билан кўрадиган, баъзан фақат ўз шахсий манфаати нуқтан иазаридан ҳаётга муносабатда бўладиган, ўзини эр билиб ҳаётда “шерлар”

борлигини тасаввур қила олмайдиган тилла балиқ сифат худбинлар бор-ку ҳаётда”[3].

Кўриб турганимиздек, олимлар бу шеърни турли хил талқин қилишади. Аслида, шоир шунчаки табиатдаги ҳодисани ёритган бўлиши ҳам мумкин, аммо маҳорат билан тасвирлаш қобилияти кучлилигидан, ҳозирга қадар бу асар барчани диққатини тортади. Бу ижодкорнинг адабий-эстетик қараш июсаклидан далолатдир.

Яшар Қосимовнинг “Тилла балиқча”нинг толеи” сарлавҳали мақоласида шеър таҳлиliga ўзгача ракурсдан ёндашилган. Адабиётшунос олим ушбу шеърни Абдулла Орипов ижодининг илк босқичига мансуб “Булоқ”, “Тиёҳ”, “Булуғ”, “Дорбоз” сингари лирик асарлар контекстида ўрганади. Унингча, аввалги таҳлилларда: “...замирида жуда муҳим ва катта маъно яширинган “отдилар” ва “ёпдилар” феълларига (таъкидларига) чуқур эътибор берилмаганлиги туфайли шеърдаги бутун бошли бир образ, яъни поэтик конфликтнинг иккинчи қутбини ташкил этувчи “улар” (“хору хас, хазонлар”) бутунлай унутиб юборилган. Бу эса “Тилла балиқча” шеърдаги конфликтнинг моҳияти ва йўналишини тўғри тушуниб етишга наинки ҳалақит берган, балки тилла балиқча образини худбинлик ва манфаатпарастликда айблашгача етиб келган”[4].

Профессор Нурбой Жабборовнинг: “Бу шеърни, таъбир жоиз бўлса, шахс эркини ҳар томонлама чеклаб қўйган шўролар муҳити устидан чиқарилган поэтик айблов, деб ҳисоблаш мумкин. Бунчалик катта мазмунни бор-йўғи 38 сўз воситасида бетакрор ифодалаш, табиийки шоирдан юсак маҳоратни талаб этади”[5], деган хулосаси замирида айни ҳақиқат мужассам. Муҳими, шеърда рамзлар, тимсоллар тили билан миллатнинг эрк ва озодликка интилиш туйғуси, истиқлол орзуси бадий ифодасини топган.

Сувон Мелининг Матёкуб Қўшжонов билан ҳаммуаллифликдаги “Абдулла Орипов” китобига кирган “Тилла балиқча фожиаси” мақоласи шеър таҳлиliga янада теранроқ ёндашилгани билан алоҳида ажралиб туради. Унингча: “Агар диққат билан қаралса, бир-бирини рад этувчи мазкур икки фикрни бирлаштирадиган бир нуқта бор: мунаққидлар шеър ғоясини шоирнинг тилла балиқчага муносабатидан излашади, фақат бирида шоир ундан нафратланади, иккинчисида аянчи тақдирдан қайғуради. Бизнингча, шеърнинг ғоясини “мен” яъни шоирнинг тилла балиқчага муносабатидан эмас, балки “мен”нинг тилла балиқча дунёни бир қўлмак ҳовуз деб билишига муносабатидан қидирмоқ керак”[6].

Адабий дунёқараш жамиятдаги ҳодисалар туфайли ўзгариб, янгириб боровчи ижтимоий онг-тафаккурнинг бир туридир дейиш мумкин. Адабиётнинг объекти дунё ва инсон, улар ўртасидаги муносабат бўлгани учун ҳам, ўзгариб бораётган дунё ва уни тафаккур қилишга уринаётган инсон билан бирга адабиёт ҳам ўзгаришда, ривожланишда давомийдир. Шоирнинг “Генетика” шеърда шундай сатрлар бор:

Мен ҳам яшайман ўз замонимда,
Давримдан қайга ҳам тушардим йироқ.
Ва лекин билмадим менинг қонимда
Қайси бир бобомнинг хислати кўпроқ.

“Шоир шеърларида эътирофдан эътироз кўп эди, – деб ёзади профессор Беғали Қосимов. – У шеърларида шеърдан улўғроқ, нондан азизроқ нарсани излайди. Бу инсоф эди, адолат эди. Бу виждон билан, иймон билан яшаш эди.”[7]. Таниқли олим Беғали Қосимов таъкидлаганидек, “шеърдан улўғ, нондан азиз” нарсани излаши, инсоф ва адолатни қўйлаши ижодкорнинг адабий дунёқараш, тафаккури, эътиқоди юсаклигини кўрсатади.

Шоир олий даргоҳда таълим олар экан, у ердаги сабоқлардан хайратини шундай ифодалайди: “Факультетимизда адабиёт тўғараги муттасил фаолият кўрсатарди. Озод Шарафиддинов, Матёқуб Қўшжонов каби устозларимиз биз билан соатлаб машғулоти олиб борардилар. Айниқса, Озод Шарафиддинов жуда далил эди. Москвада бирор асарни қоралаб қолишса, ўша асарни дарҳол ўқиб ўрганиб, ўзимизча баҳосини берардик. Масалан, бадном қилинган Борис Пастернак ҳақида “у ёмон шоир эмас”, деган хулосага келганмиз”[8].

Шоирнинг юқоридаги фикрларидан кўринадики, таълим олаётган жараёнда устозларнинг маърузалари катта мактаб бўлиб хизмат қилган. Шоирнинг адабий-эстетик дунёқараши юксалишида беқиёс хизмати борлигини шоир эътирофидан англаш мумкин. Ўша даврда ёзилган бир шеърни келтиришни жониз билдик:

Тонгни ҳам осмонга тик боқиб кутдим,
Кузатдим бирма-бир юлдузларни ҳам.
Ҳаёл дарёсида ўзни йўқотдим
Бошимдан коинот зар сочгани дам...

Юлдузлар! Беркинманг тонг туманига,
Кетманг кўзларимни ёшлаб кетгунча.
Якка суҳбатдошим, кетмагин Зухрам,
Кетма, сенга айтган шеърим битганча.

Ушбу шеър шоир ўн ёшида битилган. Ўн ёшли ўспириннинг тунни тонгга улаб, юлдузларни кузатгани, якка суҳбатдоши “илҳом”нинг (шоир “Зухрам” деб атайди А.О) ёнидан кетмаслиги хоҳлайди. “Илҳом” эса шоирнинг дардкаши, овунчоғи ва ижодининг мазмун-моҳияти дейиш мумкин.

Абдулла Орипов илк шеърлари матбуотда босилгани ва уларда ҳам устозларнинг хизмати катта бўлганлигини эътироф этиб, шундай ёзади: “Шеърларим матбуотда тез-тез босила бошлади Озод аканинг “Оқ йўли” билан “Шарқ юлдузи”да шеърларим чикди. Ёзувчилар уюшмасидаги мушоиралардан бирида “Муножотни тинглаб”, “Бургут” деган шеърларимни ўқидим, ўша куни Абдулла Қаҳҳор назарига тушдим. Миртемир домла атрофида кўп шогирдлари катори сабоқ олдим. Шайхзодадек донишманд устозга эргашиб, у киши шеър ўқиган минбардан мен ҳам шеър ўқидим. Эсимда, Эски шаҳардаги ҳозирги “Турон” кутубхонасида ўқиган шеърларимни тингловчилар жуда илиқ кутиб олдилар. Учрашувдан қайтаётганимизда Шайхзода домла билагимдан тутиб, “Шоир, сизга битта гапим бор. Эҳтиёт бўлгaysиз, ишқилиб қарсақлардан талтайиб кетмасангиз бўлгани”, деган. Бу гаплар ҳам менинг қулоғимга кўрғошиндай қўйилиб қолди”[9]. Шоир маълум ва машҳур ижодкорлар эътирофига сазовор бўлганлиги, уларнинг “оқ йўли” ва “ўғитлари” боис, у ўзи чиққан катта йўлни муваффақиятли забт этди дея оламиз.

Бундан келиб чиқадиган хулоса шуки, Абдулла Ориповнинг адабий-эстетик қарашларини намоён бўлишида, болаликдаги кузатув, Аллоҳ берган истеъдод, мактабдан олинган таълим, олийдаргоҳдаги сабоқлар, маҳоратни тинимсиз ошириш, устоз сўз санъаткорлари асарларини синчковлик билан ўқиб-ўрганиш, уларнинг эътирофи ва кўрсатган самимий маслақлар замин вазифасини ўтаган дейиш мумкин. Юқоридагиларнинг барчаси шоирнинг адабий-эстетик дунёсини англашда беқиёс хизмат қилган.

АДАБИЁТЛАР

1. Орипов А. Танланган асарлар.1-жилд. Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 2000. 7-бет
2. Джорж Оруэл.Эссе,статъи, Рецензии. Том II, Изд. “Прогресс”, 1992, 151-бет.
3. Қўшжонов М., Сувон М. Абдулла Орипов. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.30-31
4. Қосимов Я. “Тилла балиқча”нинг толеи. //Шарқ юлдузи, 1986, 12-сон. – Б.183
5. Жабборов Н. Киноя ва рамзлар замиридаги ҳақиқат. /Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. III китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – Б.7.
6. Қўшжонов М., Сувон М. Абдулла Орипов. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.84
7. Қосимов Б. Абдулла Ориповнинг ижод мактаби. / Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б. 238.
8. Орипов А. Танланган асарлар.1-жилд. Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 2000. 9-бет
9. Орипов А. Танланган асарлар.1-жилд. Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 2000. 7-бет



УДК: 316:628(575.1)

Замира АГЗАМОВА,
Ўзбекистон Миллий университети ўқитувчиси

ТДТУ PhDAдилова Ш.Р. тақризи асосида

TASKS THAT INCREASE MOTIVATION AT LESSON OF A FOREIGN LANGUAGE

Abstract

This article "Tasks that increase motivation at lesson of a foreign language" examines learning concepts that can positively affect the motivation of students. The introductory section describes factors that can greatly influence the motivation for language learning. The practical part presents examples of tasks and tasks that are focused on specific actions during training. The final section discusses how practical exercises increase interest in language learning and offers suggestions and recommendations for motivation.

Key words: motivation, motivation factors, motives, target language teaching, methodology, project, training, group work, cooperation, fantasy, creativity.

ЗАДАЧИ, ПОВЫШАЮЩИЕ МОТИВАЦИЮ НА УРОКЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Статья «Задачи, повышающие мотивацию на уроке иностранного языка» рассматриваются концепции обучения, которые могут положительно повлиять на мотивацию студентов. Вводный раздел описывает факторы, которые могут во многом влиять на мотивацию изучения языка. В практической части представлены примеры задач и заданий, которые ориентированы на конкретные действия во время обучения. В заключительном разделе обсуждается, насколько практические задания увеличивают интерес к изучению языка, и предлагаются предложения и рекомендации по мотивации.

Ключевые слова: мотивация, факторы мотивации, мотивы, целевое обучение языку, методика, проект, обучение, групповая работа, сотрудничество, фантазия, творчество.

ЧЕТ ТИЛИ ДАРСИ ЖАРАЁНИДА МОТИВАЦИЯНИ ОШИРУВЧИ ВАЗИФАЛАР

Аннотация

"Чет тили дарси жараёнида мотивацияни оширувчи вазифалар" мавзусидаги ушбу мақола талабаларнинг мотивациясига ижобий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган ўқитиш тушунчалари билан боғлиқ. Кириш қисмида мотивацияни кўп жиҳатдан тил ўрганишга таъсир этиши мумкин бўлган омиллар тасвирланган. Амалий қисмида машғулотлар давомида аниқ ҳаракатларга қаратилган вазифа, топшириқлардан намуналар келтирилган. Хулоса қисмида амалий қўлланган вазифаларни тил ўрганишга бўлган қизиқишни қай даражада оширишга эришилганлиги муҳокама қилинган, мотивация беришга қаратилган таклиф ва тавсиялар айтиб ўтилган.

Калит сўзлар: Мотивация, мотивация омиллари, мотивлар, вазифаларга асосланган тил ўргатиш, методлар, лойиҳа, ўқитиш, гуруҳда ишлаш, ҳамкорликда ишлаш, фантазия, ижодий ишлаш.

Кириш. Чет тили дарсларида мотивация муҳим рол ўйнайди. Мотивацияга таъсир қиладиган кўплаб омиллар мавжуд. Бу нафақат ижтимоий муҳитга, балки талабанинг аниқ мақсад ва ғоялари билан ҳам боғлиқдир.

Ўқитиш индивидуалдир, яъни ўқитувчи дарсни турли усуллар орқали ўтиш билан ўқишга қизиқтириши ёки бир маромда олиб бориши орқали мотивацияни сусайтириши мумкин. Бунда мулоқотни таъминлайдиган вазифалар муҳим аҳамиятга эга. Масалан дарсда ўқувчилар ҳар хил лойиҳаларни ишлаб чиқадилар, натижасини тақдим этадилар, индивидуал ва катта-кичик гуруҳларда ёки ҳамкорликда ишлайдилар, сахна кўринишлари, грамматик-лексик ўйинлар, ролли ўйинларни бажарадилар. Бундай вазифаларнинг барчаси мулоқотни ривожлантиришда мотивация бериб боради. Мотивация нимани англатади. Аввало бу ҳақидаги турлича таърифларни кўриб чиқсак.

Мотивацияни бир неча жиҳатлардан аниқлаш мумкин, бу турли нуқтан назарларга боғлиқ. Изоҳли луғатда

мотивация «ироданинг мотиви» сифатида таърифланган. [1]

Интернетдабу таърифнинг изоҳи: «Мотивация [латинча movere]– ҳаракатни уйғотмоқ, рухий физиологик режанинг динамик жараёни, инсон ҳаракатини бошқариш, мақсад сари етакловчи восита, ташкиллаштириш, фаоллик ва бардошлилик каби маъноларни англатади ўзини тутишга тайёрлиги ва эҳтимоллиги унинг ташқи кўринишини билдиради.» [2]

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). Мотивация ҳаракатларга, ҳоҳиш ва мақсадларга туртки беради. Мотивация мотив сўзидан ёки қондиришни талаб қиладиган эҳтиёждан келиб чиқади. Бу эҳтиёжлар, ҳоҳишлар ёки истаклар маданият, жамият, турмуш тарзи ёки умуман туғма бўлиши мумкин. Шахснинг мотивацияси ташқи кучлардан (ташқи мотивация) ёки ўз-ўзидан (ички мотивация) илҳомланиши мумкин. Ички мотивация ва ташқи мотивация ўртасидаги фарқ унинг ҳаракатларига боғлиқ. [3]

“Мотивация - бу мақсадга йўналтирилган ҳатти-ҳаракатларни бошлайдиган, бошқарадиган ва сақлайдиган жараён. Мотивация ҳулқ-атвори фаоллаштирадиган биологик, ҳиссий, ижтимоий ва билим кучларини ўз ичига олади. Кундалик фойдаланишда “мотивация” атамаси одамнинг нима учун бирон бир иш қилишини таърифлаш учун тез-тез ишлатилади. Бу инсон ҳаракатларининг ҳаракатлантирувчи кучидир.”[4]

Мотивация нафақат ҳатти-ҳаракатларни фаоллаштирадиган омилларни назарда тутди; балки, ушбу мақсадга йўналтирилган ҳаракатларни бошқарадиган ва қўллаб-қувватлайдиган омилларни ҳам ўз ичига олади. Кенгрок таърифда “мотивация” тилни ўрганишнинг таъсирчан омилларидан бири сифатида тавсифланади. Бу шуни англатадики, “мотивация - бу ҳиссиётларга боғлиқ ва тилни ўрганишга таъсир қилувчи омил.” [5]

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Чет тилларини ўрганишда мотивация «турли, бир-бирини тўлдирувчи ва ўзаро боғлиқ компонентлардан ташкил топган ролни ўйнайди.» [6]

Мотивация талаба учун жуда муҳим ва чет тилини ўрганишга катта таъсир кўрсатади.

Албатта, талабаларга таъсир кўрсатишда ўқитиш шакллари, мазмуни ва материаллари ҳам рол ўйнайди. Агар мотивация ошса, у ҳолда ўқишни яхшилаш ва мақсадни тезроқ тушуниш мумкин. Таълим модели ўқувчиларнинг мотивларига асосланган бўлиши мумкин, лекин бу жуда қийин, чунки талабаларнинг мотивлари жуда индивидуалдир. Ўқитувчилар, ота-оналар, ижтимоий муҳит ҳам ўқитиш жараёни ва мотивацияга таъсир қилади.[7].

Дарсларни мотивация берувчи, эркин ва ижодий ишлашга ундовчи вазифалар билан ташкиллаштиришда бир қанча афзалликларни кўрсатиш мумкин. Масалан:

- дарсларни режалаштириш ва амалга оширишда талабаларнинг фаол иштироки (бу уларга мавзунини яхшироқ аниқлаш имконини беради)

- дарс учун жавобгарликни ўз зиммаларига олиш (бу қийин бўлиши мумкин, чунки кўпчилик талабалар ўз-ўзини ўқитишга ўрганмаган. Баъзида улар берилган эркинликни суиистеъмол қилишлари ҳам мумкин.);

- билим олишдаги қизиқиш ва фаолликни ошириш;
- демократик назорат ва танқид (талабалар ўз фикрлари ва ҳатти-ҳаракатларида мустақил бўлиб, ўз фикри ва танқид қилиш қобилияти орқали ўз шахсий хусусиятларини топа олишади);

- таълим учун жавобгарликни ўз зиммасига олиш;
- дарслар қизиқарли ва жонли ўтишишига эришилади.[8].

Ҳаракатга йўналтирилган ўқитиш усуллари:

а) муаммоларни аниқлаш усуллари: кириш, фаоллаштириш, режалаштириш. Масалан, АБС- рўйхати, аквариум, ақлий ҳужум, Mind Map, ролли ўйинлар, ижобий ва салбий томонлари, маъруза / тақдимотларни олишимиз мумкин. Бунда “Биз нимани хоҳлаймиз?”, “Бунга қандай эришмоқчимиз?” саволлари бўйича ишланади.

б) шахсий ва фактик йўналишни яратиш усуллари: Буларга танишиш / Warming-up-Method, ўзини таништириш, ҳамкорни таништириш, автопортрет каби усуллар қиради. Бунда “Биз киммиз?” деган саволга жавоб берилади.

с) Билимларни мустаҳкамлаш, акс эттириш, узатиш усуллари: Савол: “Биз нима қилдик?”, “Биз нимани ўргандик?”, “Биз эришмоқчи бўлган нарсани эришдикми?” Бунга АБС-рўйхатлари, ақлий ҳужум, ролли ўйинлар, талабалар тақдимотлари, блиц-саволлар мисол бўла олади. [9].

Таҳлил ванажиҳалар (Analysis and Results). Кўпгина талабалар оммавий ахборот воситаларидан фойдаланишни ёки ижодий ва эркин ишлашни яхши кўрадилар. Шунинг учун биз технология, интернет ва бошқа кенг тарқалган тушунчаларни танладик. Қуйида чет тилини ўрганиш мотивациясини яхшилаш ва кучайтириш мумкин бўлган, чет тилини ўрганишда самарали натижа берган вазифалардан айримларини мисол тариқасида келтирмоқчимиз.

1-лойиҳа

а) вазифа номи: шахснинг хусусиятлари ва улар ҳақида ҳикоя тузиш

б) мақсадлари: тасаввурни (фантазияни) қўллаб – қувватлаш, гуруҳда, кейин аудитория олдида гапириш мотивацияси;

в) ижтимоий шакл: гуруҳларда ишлаш;

г) медиа: расмли карточкалар;

д) жараённинг бориши:

1 -қадам: Ўқитувчи ҳар бир гуруҳга инсонлар расмларини беради

2 -қадам: Талабалар расмдаги шахсни қараб, унга хос бўлган фазилятларини тасвирлаб ёзишади.

3 -қадам: Сўнгра шу фазилятларни қўллаган ҳолда у ҳақида ҳикоя ёзишни синаб кўришади

4 -қадам: Гуруҳлар ўз шахсларини тақдим этадилар

5 -қадам: Талабалар диққат билан тинглаб, саволлар беришади. Улар расмдаги шахсдан нималарни ўзларига олишлари мумкин, нимани ўрганишни хоҳлашлари мумкинлиги каби саволларни беришади.

2-лойиҳа

а) вазифа номи: фантазияларига кўра телефон суҳбати

б) мақсадлари: мулоқотни ривожлантириш, гапиришдаги кўркувни бартараф қилиш, тасаввурни қўллаб –қувватлаш, суҳбатда керакли сўзлардан фойдаланиш, ҳамкорликда ишлаш

в) Ижтимоий шакли: ҳамкорлик иши(партнер)

г) медиа: видео

д) жараённинг бориши:

1 -қадам: Ўқитувчи ўқувчиларга видеони овозсиз кўрсатади ва видеода учта телефон суҳбати борлигини маълум қилади.

2 -қадам: Талабалар телефон суҳбатини жуфт бўлиб танлашлари керак ва унда нима ҳақида суҳбат кетаётганини ўйлашлари керак.

3-қадам: улар телефон суҳбатини ёзишлари керак.

4 -қадам: улар телефон суҳбатини гуруҳ олдида ўйнаб кўрсатиб берадилар.

5 -қадам: Тинглаган талабалар ўртоқлари қандай хатоларга йўл қўйишганини, тилга мос келадиган ҳамма нарсани ёзадилар.

6 -қадам: вазифаларни қайта ишлашда юзага келган хатолар ва муаммоларни муҳокама қиладилар.

7 -қадам: Ўқитувчи талабаларга видеони баланд овозда кўрсатади ва ҳамма бу телефон суҳбатларини муҳокама қиладилар, солиштирадидилар, қайси суҳбат оригиналига мос келганини ёки тўғрилигини аниқлаб фикр билдирадидилар.

3-лойиҳа

а) вазифа номи: расмни чизиб ярмини тиклаш

б) мақсадлари: Гапириш, расм чизиш мотивацияси, чет тили орқали бирор нарсани ўрганиш (масалан, тасвирлаш орқали муҳим маълумотларни бериш)

в) Ижтимоий шакли: ҳамкорлик иши(партнер)

г) медиа: Расм - икки қисмдан иборат

д) жараённинг бориши:

1 -кадам: Ўқитувчи шерикларга расм таркатади, лекин ҳар бирига битта қисмини беради

2 -кадам: Гапириш орқали партнёр талабадан олинган маълумотни тушуниш керак. Партнёр ўзидаги расмни тасвирлайди, иккинчиси ўзидаги расмда йўқ маълумотларни чизиб, бўяб ўзидаги расмни тиклайди.

3 -кадам: Ҳаммасини бўяб бўлгач, расмларни солиштирадilar.

4 -кадам: Расмларни синфга тақдим этиб, бу вазифани бажаришда улар қайси муаммоларга дуч келишганини айтишлари мумкин.

5 -кадам: Улар ўзларини муаммо туғдирган сўз бирикмаларини машқ қиладилар (масалан, расмга қараб хонани таърифлаш, сабзавотлар, озик -овқат, фермадаги ҳайвонлар ва бошқаларни таърифлаш), шунингдек расмни таърифлашда керак бўлган тегишли предлогларни ҳам билишлари, ўрганишлари керак бўлади)

Хулосава таклифлар (Conclusion/Recommendations). Мотивация турғун характерга эга эмас, у ўқитиш жараёнида ўзгаради ва юқорида айтиб ўтилган кўплаб омилларга боғлиқ. Уларнинг ўзгарувчан характери ўқитувчининг ижобий ишлашига имкон беради, у ҳар доим ўз ўқувчиларининг мотивациясини уйғотишга интилиши керак. [10]. Ўқувчиларда мотивациянинг сабаблари бўлиши мумкин, шунинг учун уларни ёзиб олиш керак. Агар уларда чет тилини ўрганишнинг ўзига хос сабаблари бўлмаса, ички ёки ташқи мотивация етарли бўлмаса, унда

улар рағбатлантирилиши керак. Ўқув жараёнини такомиллаштириш ва ўқувчилар фаолиятини яхшилаш учун ҳар доим имконият бор. Қандай бўлмасин, ўқитувчи бунинг учун мотивация топиши керак. Бу ерда айтилган барча тушунчалар ёрдам бериши мумкин. Ўқитиш мотивацияни оширишга ёрдам берадиган усуллар сифатида қуйидагиларни тавсия қилиш мумкин.

-ҳаракат дарслари

- лойиха дарслари

- сценарийлар

- ижодий вазифаларга йўналтирилган дарслар.

Бу фаолият учун ўқитувчига ҳам талабаларга тавсия қилишда замонавий техник воситалар керак, масалан: Интернет, мобил телефон, бимер, бир нечта амалий воситалар (расмлар, карталар, маркерлар, катта-кичик ҳажмдаги қоғозлар ва бошқалар. Буларнинг ҳаммаси ҳамкасбларга дарсга тайёргарлик кўришда ёрдам бериши ва осонлаштириши мумкин.

Ўқиш кўпинча мотивацияга асосланган. Агар кишида чет тилини ўрганишга асос бўлмаса, эҳтимол ўша тил ўрганилмайди. Ҳар ким ўз олдига мақсад қўйиши муҳим. Кейин бу мақсадларга қандай эришиш ҳақида ўйлаш керак. [11]. Таъкидлаб кўрсатилган тушунчалар ҳам туртки бўлиши мумкин, лекин энг муҳими, ўрганиш учун аввало ҳар кимнинг ўзида кучли ҳоҳиш бўлиши керак. Шундагина ҳоҳишларни мотивациялар орқали кучайтириб, тилни мукамал ўрганишни амалга оширишга эришилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Kraetzig 2013, online
2. Kraetzig 2013, online
3. <https://community.uzbekcoders.uz/post/motivatsiya-nima>
4. Kraetzig 2013, online
5. Glöckner 2013, online
6. <https://en.wikipedia.org/wiki/Motivation>
7. Жаникова, В. Чет тили сифатида немис тилини ўқитиш дидактикаси. БРНО: МУ.2009, 75-76-бетлар
8. Жаникова, В. Чет тили сифатида немис тили дидактикаси. Кириш.2010, 15 б
9. Клеппин, К. Мотивация. Фақат афсонами? II- қисм. Немис тили чет тили сифатида, 2002, 25 б.
10. Ример, Клаудия "Мен учун инглиз тили дарс жадвалимнинг бир қисми эди" - глобаллашув даврида инглиз тилини ўрганишга туртки. Маданиятлараро хорижий тилларни ўқитиш журналы 8 /2003, 56 б.
11. Бритта / Ример, Клаудия (тахр.) немис тили чет тили ва иккинчи тил сифатида. Берлин, Нью -йорк: Де Груйтер.2010



UDK: 81'25:81'364

Gulasal BOBOQULOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti 2-kurs magistranti
E-mail: gulasalb95@gmail.com

O'zMU DSc, professor, Sadullayeva N.A. taqrizi asosida

SEMANTIC-PRAGMATIC ANALYSIS OF THE TRANSFORMATION OF STABLE EXPRESSIONS

Abstract

In this article, the fields of transformation and pragmatics of linguistics have been studied, and on the basis of this, semantic-pragmatic and transformation of stable expressions have been analyzed. In addition, this article uses a few examples to show that transformation and pragmatism are key factors in translating stable expressions in each language or finding their equivalents.

Key words: transformation, pragmatics, stable expressions, addition, subtraction, complex, linguistic phenomenon, component.

СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТРАНСФОРМАЦИИ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ

Аннотация

В данной статье были изучены области трансформации и прагматики лингвистики, и на основе этого проанализированы семантико-прагматические и трансформации устойчивых выражений. Кроме того, в этой статье используется несколько примеров, чтобы показать, что трансформация и прагматизм являются ключевыми факторами при переводе устойчивых выражений на каждом языке или поиске их эквивалентов.

Ключевые слова: трансформация, прагматика, фиксированные выражения, сложение, вычитание, комплекс, лингвистический феномен, компонент.

TURG'UN SO'Z BIRIKMALARINING TRANSFORMATSIYASINING SEMANTIK-PRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, tilshunoslikning transformatsiya va pragmatika sohalarini o'rganildi va shular asosida turg'un so'z birikmalarini semantik-pragmatik va transformatsiya yordamida tahlil qilindi. Bundan tashqari ushbu maqolada har bir tildagi turg'un iboralarni boshqa tilga tarjima qilish yoki uning ekvivalentini topishda transformatsiya va pragmatika asosiy omil ekanligi bir nechta misollar yordamida ochib berilgan.


Kalit so'zlar: transformatsiya, pragmatika, turg'un so'z birikmalari, qo'shish, tushib qolish, kompleks, lisoniy hodisa, komponent.

Kirish: Biz bilamizki, turg'un so'z birikmalari har bir tilda mavjud va har bir tildagi turg'un so'z birikmalar o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan ya'ni milliy urf odatlari, an'analari, o'tmishi (tarixi) va buguni (kelajagi) bilan chambarchas bog'liqdir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibiki ma'lum bir tildagi turg'un so'z birikmalarini boshqa bir tilga tarjima qilishni yoki o'z holicha olib o'tishni talab qiladi. Har bir mohir tarjimon

turg'un so'z birikmalarini tarjima qilayotganda uni aslyatga yaqinroq chiqishini ta'minlaydigan tarjima priyomlarini bilishi kerak bo'ladi va shulardan biri transformatsiya atamasi hisoblanadi.

Aslida bu atama tilshunoslikning ko'plab sohalarida qo'llaniladi va uning ma'nolari lugatlarda turlicha namoyon bo'lgan[1]. Misol tariqasida quydagilarni ko'rishimiz mumkin:



-Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tarjima nazariyasi va amaliyoti sohalarida transformatsiya tushuncha bir qancha o'zgacha ma'noga egaligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada bir nechta tilshunoslarning qarashlarini ko'rib chiqamiz.

Xomskiyning fikrichaga qaraydigan bo'lsak, u transformatsiyalar yordamida belgilar ustida to'rt xil

operatsialarni amalga oshirish mumkin aytib o'tadi. Bular quydagilar[2]:

- 1.Qo'shish. 2.Tushirib qoldirish. 3.O'rin almashtirish. 4.Belgilarning almashinuvi.

L.S.Barxudarov transformatsiyaga quydagicha ta'rif beradi: "Uni biri ikkinchisining asosida kelib chiqqan til yoki nutq birliklarning o'zaro munosabati" - deb ataydi. Tarjimadagi

transformatsiyaga esa, tarjimada ekvivalentlik va adekvatlikni ta'minlash uchun ishlatiladigan tillararo turli xil almashinishlarga aytiladi deb ta'kidlagan va ularni quyidagi turlarini keltirib o'tadi va bu bilan Xomskiyning fikriga yaqin keladi:

1) o'rin almashtirish (gap tarkibidagi so'z va so'z birikmalarining yoki ergash gap komponentlarining o'rin almashishi);

2) almashtirish (so'z shakllari, gap bo'laklarini almashtirish, qo'shma gaplardagi sintaktik almashinishlar, gaplarning qo'shib ketishi, konkretlashtirish, umumlashtirish, sababni natijasi bilan va aksincha almashtirish, antonim tarjima, kompensatsiya)

3) qo'shish;

4) tushirib qoldirish[3].

Yana bir tilshunos olimimiz V.N. Komissarov transformatsiyalarni quyidagi guruhlariga ajratgan:

1) leksik transformatsiyalar (transkripsiya, transliteratsiya, kalka usuli, leksik-semantik almashtirishlar: konkretlashtirish, umumlashtirish va modulyatsiya);

2) grammatik transformatsiyalar (so'zma-so'z tarjima, gaplarning qo'shib ketishi, grammatik almashtirishlar: so'z shakllari, so'z turkumlari, gap bo'laklari);

3) kompleks (leksik-grammatik transformatsiyalar: antonym tarjima, eksplikatsiya (tasviriy tarjima), kompensatsiya) [4].

Yana bir olim L.K.Latishevning fikriga ko'ra tillararo transformatsiyalar olti turga bo'lib o'rgangan[5]:

1) leksik transformatsiyalar (leksemalarning sinonimik almashinuvi);

2) stilistik transformatsiyalar (tarjima qilinayotgan birlikning stilistik bo'yog'ini o'zgartirish);

3) morfologik transformatsiyalar (bir so'z turkumining boshqasi bilan almashtirilishi);

4) sintaktik transformatsiyalar (gaplardagi sintaktik qurilish va aloqalarning almashtirilishi);

5) semantik transformatsiyalar;

6) aralash transformatsiyalar (antonim tarjima, transformatsiya, konversiya).

Yuqoridagilarning barchasi tilshunos olimlarning transformatsiyaga oid turli fikrlari va qarashlari hisoblanadi va bu fikrlardan transformatsiya nima ekanligi biroz bo'lsada ko'z oldimizda namoyon bo'ldi.

Transformatsiya tushunchasi bilan bir qatorda pragmatika atamasiga ham bir muncha to'xtalib o'tamiz, chunki bizning asosiy maqsadimiz turg'un so'z birikmalarining transformatsiyasining semantik-pragmatik tahlil qilishdan iborat.

Pragmatika atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib "pragma, pragmatos - ish, harakat" degan ma'noni anglatadi va pragmatika semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch.Morris tomonidan olib kiritilgan, yana bir amerikalik olim Ch.Morris ushbu g'oyani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan[6].

In this ad, the use of Malay words helps to create an exotic atmosphere which may attract more tourists to go to the city advertised. Personal pronouns in advertising are significantly important since they establish a personal relationship between advertisers and customers. The most frequent personal pronouns in advertising are deemed "you", "I" and "we". The

pronoun "you" provides a connection between you, customer, and a newly released product. It describes possible relationship between the device and the consumer. The pronoun "it" in the analyzed slogans mostly refers to the product which is recently introduced to an audience.



The iPhone you've been waiting for.
Movies, TV shows, games, and music. Now playing on an iPod near you.

It's big on color.

It's the most amazing iPhone yet.

Sentence length is an important criterion of the readability of a text. The longer the sentence, the lower the readability of the text. According to the research done by United Press International (UPI) and the Associated Press, a text with an average sentence length of eight words or less is regarded as "very easy to read" while one averaging 29 or more words would be considered "very difficult to read". And the "standard" or ideal average is 17 words.

Since the advertising text aims at attracting readers' attention and informing them of a certain product, and long difficult sentences would drain readers' interest in reading the text, short and simple sentences are preferred in advertising writing.

In order to be easily comprehensible, English advertising tends to adopt short sentence. Besides, short

sentences may help to retain readers' attention and persuade them to do the purchase with the tense atmosphere and fast pace they have created.

Conclusion/Recommendation: Through the application of the analysis approaches and methods of general lexical features of print English advertising are studied from the aspects of lexis. It is shown that in an attempt to catch readers' attention and to impress readers of the excellence of their products or services, advertisers apply a variety of devices, for example: different kinds of vocabulary in the advertising texts. The research of lexical features of English advertisements can be summarized in the following way:

the most common form of adjectives is a basic form (73%)

the standard sentence length in ads includes 17 words

Investigation in this area could be developed furthermore as in language of advertisement could be observed not repeatable features at any time so when in this sphere the research is carried on new results will be investigated.

REFERENCES

1. Goddard A. The language of advertising: written text. – London: Routledge, 2002. P. 5.
2. Ogilvy D. Ogilvy on advertising. – New York: Crown, 1983. P. 7.
3. Cook G. The discourse of advertising. – London: Routledge, 1996. P. 16.
4. Leech G. N. English in advertising: a linguistic study of advertising in Great Britain. – London: Longmans, 1966. P. 25.
5. Hutchinson T. English for Specific Purposes. – New York: Cambridge University Press, 1987. P. 390.
6. Linghong Z. The linguistic features of English advertising. – Capital Normal University: CELEA Journal (Bimonthly), Vol. 29 No. 1, Feb. 2006. P. 73.
7. slimfast.com
8. Fialová L. Bc. The language of advertising: An analysis of a technology company advertisements. – Brno: Masaryk University, 2017. November 23. P. 81.



УДК: 811.113:512.133 (575.1)

Г.С. КУРБОНОВА,

*Ўзбекистон Миллий университети филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
E-mail: gulsars.qurbonovna@gmail.com*

Ташиқи тақризи: ЎзДЖТУ профессори Ж.А. Якубов.

ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ МАТНЛАРДА ШАРҚ МАДАНИЯТИНИНГ ҚАЙТА ЯРАТИЛИШИ

Аннотация

Мақолада француз ёзувчиси Амин Маалуфнинг “Самарқанд ёхуд зулматда йўқолган зиёни излаб...” асарининг ўзбек тилига қилинган таржимасида шарқ менталитетининг таржимада қайта яратилиши муаммолари ўрганилган. Унда таржима усул ва услублари, муаллиф – таржимон – ўқувчи муносабатлари аслият ва таржима матни мисоллари орқали тадқиқ этилган. Таҳлилга тортилган мисоллар эркин, мувофиқлаштирувчи, энциклопедик, муқобиллик каби таржима тамойиллари асосида гуруҳланган.

Калит сўзлар: менталитет, тарихий детал, ижодий таржима, таржима муаммолари, аслият, урф-одат, бевосита таржима.

РЕКОНСТРУКЦИЯ ВОСТОЧНОЙ КУЛЬТУРЫ НА ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье исследуется проблема восточного менталитета и проблемы его воссоздания произведения французского писателя Амина Маалюфа «В поисках утраты, затерянного в Самарканде или в темноте ...» на узбекский язык. В нём исследуются методы и приемы перевода, а также взаимоотношения автор-переводчик-читатель на примере оригинала и его перевода изучаемого произведения. Рассмотренные примеры проанализированы на основе принципов перевода свободного, адаптированного, энциклопедического и эквивалентного.

Ключевые слова: менталитет, историческая деталь, творческий перевод, проблемы перевода, оригинальность, традиция, непосредственный перевод.

RECONSTRUCTION OF EASTERN CULTURE IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

The article examines the problem of the eastern mentality and the problems of its reconstruction of the work of the French writer Amin Maaluf "In Search of Loss, Lost in Samarkand or in the Dark ..." into the Uzbek language. It examines the methods and techniques of translation, as well as the author-translator-reader relationship using the example of the original and its translation of the studied work. The considered examples are analyzed on the basis of the principles of free, adapted, encyclopedic and equivalent translation.

Key words: mentality, historical detail, creative translation, translation problems, originality, tradition, direct translation.

Жаҳон таржимашунослиги илмий мактабларида миллий-маданий ўзига хослик ва унинг таржимада қайта яратиш муаммоларига доир тадқиқотларни олиб боришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Маданиятнинг хусусиятлари тилда миллий-маданий бирликлар тил бирликлари маъносини ифодалайди ва уларнинг ишлатилишига таъсир кўрсатади. Шунга қарамадан, маданият у ёки бу даражада “автоматик” тарзда матнга тилнинг маданий коннотация белгиларини олиб қиради ҳамда маданий-тарихий воқеалар, анъаналар, урф-одатларни тавсифловчи объект вазифани бажаради. Шунинг учун ҳам бир тилдан иккинчи тилга таржима, бир маданиятни бошқа маданиятга ўгириш маъносида тушунилади. Таржимани мукамал амалга ошириш учун лингвистик билимлар билан бирга экстралингвистик билимлар ҳам муҳим саналади. Албатта, буларнинг барчаси мураккаб, тил ва маданиятнинг кўп босқичли жараёнлари таъсирида рўй беради.

Таржима бир-бирдан фарқ қиладиган икки маданий бирлашма вакиллари орасидаги коммуникатив фаолият сифатида маданий тўсиқ муаммоларини ҳал этади. “Таржиманинг икки ёқлама характери, яъни таржима қилинаётган аслият матнга тегишли маданият соҳиблари ва

таржима матнига тегишли маданият соҳибларининг бир-бирини тушунишларини таъминлаб беради” [5. Б. 314–315]. Таржима жараёнида маданий факторларнинг таъсирини тан олган ҳолда, уларнинг аҳамиятини ҳаддан зиёд ошириб юбормаслик лозим. Таржиманинг маданий-этнографик концепцияси маданий фарқларнинг родини кўчайтиради, унга кўра “...тиллар эмас, балки маданиятлар таржима қилинади” [3. Б. 112–113].

Ўзбек таржимашунослигида ўзига хос миллий муносабатини таржимада беришга доир назарий фикрлар Ғ.Саломов, Қ.Мусаев, Р.Файзуллаева, Р.Ширинова, Н.Владимирова, И.Мирзаев, М.Холбековларнинг ишларида кузатилади. Таржимашунос олима Раима Ширинова таъкидлаганидек: “Ҳар бир миллатнинг олами идрок этиши, ўзини қуршаб турган дунёни қандай англаши, энг аввало, ўша халқнинг бадий асарларида ўз аксини топади. Бадий асарлар тиллардан тилларга таржима қилинса, бегона халқ маданияти билан танишиш имкони пайдо бўлади. Бадий таржимада аслият оламининг миллий манзарасини таржимада ёрқин ва аниқ қайта тиклаш таржимоннинг билими, дунёқараши, маҳорати ҳамда санъатига боғлиқ” [6. Б. 53].

Француз ёзувчиси Амин Маалуфнинг “Самарқанд” асарида ифода этилган шарқ миллий маданиятининг ўзбек тилида қайта яратилиши бадиий матн таржимасида аслиятнинг ўрнини аниқлашга ва мазкур тарихий-фалсафий асарнинг адекват таржима мезонларини ўрганишга имкон беради.

Амин Маалуфнинг “Самарқанд” асари тарихий воқеаларга бой бўлиб, XI асрдан XX асргача Яқин Шарқ мамлакатларида содир бўлган ижтимоий-сиёсий воқеаларни ўз ичига олади. XI асрда яшаб ижод этган машхур олим, шоир ва файласуф Умар Хайёмнинг Самарқанддаги ҳаёти ўша даврнинг шиддатли ижтимоий-сиёсий воқеалари, янги пайдо бўлаётган турли диний мазҳаблар ўртасида аёвсиз кураш кетаётган даврлар билан чамбарчас боғлиқ кечади ва унинг ўзи ҳам шу курашларнинг иштирокчисига айланади.

Француз миллатига мансуб америкалик ёзувчининг “Самарқанд ёхуд зулматда йўқолган зиёни излаб...” асарининг ўзбек тилига таржимаси таржиманинг ўзига хос мураккаблигини юзага келтиради. Чунки асарда шарқ миллатига хос менталитет, урф-одат, ижтимоий-маиший турмуш тарзи бундан бир неча юз йилликларда содир бўлган ғарб ва шарқни бир-бирига боғловчи воқеалар гирдобиди кечади. Шу боис асар мазмунидан ғарбликларнинг шарқликларга бўлган ижобий маънодаги қизиқиши, мафтункор асору-атиқаларининг миллат қадриятлари сифатида алоҳида маъно касб этишини уқиб олиш мумкин. Шарқ менталитетига хос қарашларнинг бадиий таржимада қайта яратилишининг тарихий-фалсафий роман сифатида яна бир ўзига хос мураккаблиги ҳозирги замон ўқувчисининг бир неча аср илгари содир бўлган реал воқеа-ҳодисалар билан тўқнашувда намоён бўлади. Чунки замонавий ўқувчи учун ҳам ўтмишда шарқ халқларига хос бўлган яшаш тарзини тушуниши қийин, сабаби ўтган вақт давомида бизнинг турмуш тарзимизда ҳамда дунёқарашимизда жуда кўп ўзгаришлар рўй берди. М.М.Морозов айтганидек, “...асл нуханинг миллий ўзига хослиги жамият тарихи, халқ тарихи билан узвий боғлиқдир. Шунинг учун ҳам асл нуханинг маълум бир миллат тарихи билан боғлиқ элементлари алоҳида эътибор талаб қилади” [4. Б. 15].

Асар қаҳрамони ҳар қандай вазиятда инсонийлик ва маънавий бойликни моддий бойликлардан устун қўйишини, бу дунёнинг ўткинчи бойликлари деб ўзлигини, инсоний қадр-қимматини йўқотиб қўймаганлигини асарнинг дебючасидан то хотимасигача кўришимиз мумкин. Умар Хайём Самарқандга келган вақтида бир бечора чолни соқол-мўйлови эндигина сабза урган, қўлларидаги қалтаклари билан завқланиб ураётган ёш-яланглари учратди. Хайём бу манзарага бефарқ қараб кетолмади. Чолнинг бечора кўзлари Хайёмга илтижоли тикилгандек туюлди. Оламон орасидан кимдир уни Узун Жаббор деб атади. Бу исми эшитган Умарнинг диққати яна ҳам ошади. Қуйидаги жумлаларда аслият ва бевосита таржимада асар персонажини руҳий ҳолатини кўришимиз мумкин.

Аслиятда:

“Omar sursaute, un frisson de honte lui traverse la gorge, il murmure: Jaber, le compagnon d'Abous-Ali [8. Б. 17].

Бевосита таржимада:

“Хайём бу исми эшитиб сесканиб кетди, бўғзига бир нарса тикилгандек бўлди. “Жаббор! Абу Алининг шогирди!” – ҳаёлига келди унинг [1. Б. 34].

Мазкур контекстда гап ўз давридаёқ бутун Шарқу Ғарбда Авицена номи билан машхур бўлган Абу Али Ибн Сино ҳақида кетади. Аслиятда Умар Хайём Ибн Синонинг шогирди тимсолида оломоннинг илм аҳлига

муносабатидан ларзага келади ва қалтироқ овозда Жаббор Абу Алининг шогирди эканлигини айтиб пичирлайди. Албатта, таржимон аслиятдаги маънони тўғри етказа олган, китобхон эътиборини тиббиёт ва фалсафий билимлар соҳиб бўлган Абу Али ва унинг шогирди дунёсига етаклай олган.

Навбатдаги мисолга эътибор қаратамиз.

Аслиятда:

“Si cet homme est réellement un alchimiste, décide-t-il, c'est au grand juge Abou-Taher qu'il convient de le conduire” [8. Б. 18].

Таржимада:

“Агар бу одам ростдан ҳам афсунгар бўлса, уни қозикалон Абу Тоҳирнинг олдига олиб бориш мумкин” [1. Б. 39].

Аслиятда:

- C'est du kaghez chinois, le meilleure papier qui ait jamais été produit par les ateliers de Samarcande. Un juif du quartier de Maturid l'a fabriqué à mon intention, selon une antique recette, entièrement à base de mûrier blanc. Tâte-le, il est de la même sève que la soie [8. Б. 24].

Таржимада:

- Бу китоб Самарқанд устахоналарида қадимий усулда, энг сифатли хитой қоғозидан тайёрланган. Уни мотрудийлик бир яхудий уста менинг буюртмама биноан махсус оқ тут ёғочдан тайёрлади. Саҳифаларини кўргин, улар худди шохидек силлиқ ва мустаҳкам [1. Б. 47].

Француз китобхон тасавуридаги олий судья, қадимги даврда шарқ халқлари учун қозикалон номи билан ассоциация қилинади, шунинг учун ҳам таржимон *juge* сўзини қозикалон сўзи билан алмаштириб, ўзбек ўқувчиларининг дунёқарашига мослаштиради. Кейинги сатрларда хитой қоғози алоҳида қийматга эга савдо-сотик алоқалари туфайли форс тилидан ғарб тилларига ўзлаштирилган сўз бўлганлиги учун ҳам француз тилида *kaghez chinois* тарзида ифода этилган бўлса, ўзбек тилида тарнслиттерация усулида хитой қоғози тарзида берилган. Un juif du quartier de Maturid жумласи сўзма-сўз Мотрудий даҳасидаги бир яхудий маъносини беради, таржимон ўқувчи эътиборини ортиқча сўзлар билан чалғитмаслик мақсадида мотрудийлик бир яхудий жумласи орқали содда ва тушунарли тилда устанинг тавсифини келтиради.

Аслиятда: Nasr Khan, maître de la Transoxiane, gesticule, debout devant son trône, géant cuivré ruisselant de broderies;...[8. Б. 30].

Таржимада: Мовароуннаҳр ҳукмдори Носирхон мис қопланган ялтироқ тахти ёнида тик турганича ана шундай ўдағайларди [1. Б. 55].

Қорахонийлар сулоласига мансуб бўлган Носирхон Мовароуннаҳрни бошқарган, унинг пойтахти Самарқанд шаҳри бўлган. Агар тарихга мурожаат этадиган бўлсак, ўша даврда Амударё ва Сирдарё ўртасидаги водий Мовароуннаҳр деб аталган. Асл матнда муаллиф Ўрта Осиёни ғарбликлар тушунчасида француз тилида Transoxiane номи билан атайди, таржимон ҳам муаллиф қарашларидан четга чиқмаган ҳолда мусулмон Шарқини Мовароуннаҳр номи билан таржима қилади, чунки кейинчалик бутун Осиё территорияси шу ном билан аталган.

Асл нуханинг тарихий деталлари таржима амалиётида кўпинча бошқа тилга эквивалентлар орқали ўтади ва ўша давр ҳақида тарихий бўёқдорликни етказиш имконини беради. Тарихий сўзларнинг маъносини тўғри етказиш учун унинг асл матнда ва таржима матнида ифодаланишини билиш муҳим. Баъзан муаллиф ғарбликлар тушунчасини акс эттирувчи сўзларни бутунги кунда тарихий архаизмга айланган иборалар орқали

ифодалаган. Масалан, Жаҳоннинг хон саройида номаҳрамлар олдида чодирасини ярим кўтариб, мафтункор қиёфада шеър ўқиши Умар Хайёмни лол қолдиради. Мана шу парчада қўлланилган “чодира” сўзи ўзбек тилида шарқ менталитетига хос муқобил эквивалент билан қўлланилган. Француз тилида ҳам бу тушунча мавжуд, у форс тилидан француз тилига калкалаш йўли билан “tchador” [9] кўринишида ўтган. Бироқ асл матнда ушбу сўз “voile”, кўринишида берилган. “Voile” [9] сўзининг маъноси юзнинг пастки қисмини яшириш ёки баъзи ҳолатларда аёлларнинг бошини ёпиш учун ишлатиладиган мато парчаси маъносида қўлланилади. Ўзбек тилида “чодира” сўзи форс тилидан олинган “ёпинчик”, “ҳижоб” [7] маъносини беради. Қуйидаги жумлаларда мусулмон аёлларига мансуб бўлган ёпинчикнинг французча ва ўзбекча ифодаланишини кўриш мумкин.

Аслиятда: Djahane a déjà soulevé le bas de son voile, découvrant des lèvres sans fard... [8. Б. 35].

Таржимада: ...Жаҳон бўёқсиз, лекин ғунчадек лабларини кўрсатар даражада чодирасини кўтариб, рухсат ҳам сўраб ўтирмасдан ёқимли овозда шеър ўқий бошлади [1. Б. 62].

Французча матнда “voile” ва “чодира” сўзи икки маротаба қайта учрайди, фр: “...avant de rabattre son voile”; “...elle n'est déjà plus que voiles” [8. Б. 35] жумлаларида, ўзбекча таржимада “чодира” сўзи “...чодирасини тушуриш баҳонасида” ва “...шоира аллақачон чодирасига ўралиб олган” [1. Б. 63] сўзлари орқали ифодаланади.

Аммо француз тилидаги “voile” сўзи кейинги мисраларда чодиранинг синоними “паранжи” сўзи билан ифодаланган.

Аслиятда:

- As-tu encore ton voile?

- Je n'ai plus d'autre voile que la nuit [8. Б. 42].

Таржимада:

- Сен ҳамон паранжидамисан?

- Йўқ, энди менинг паранжим – қоронғу тун ҳолос...

[1. Б. 72].

Паранжи аёлларнинг устки кўчалик кийими маъносини англатган. Тарихий манбаларда у сўғдий асосга эга бўлган. Европаликлар учун бу кийим Буюк ипак йўли амал қилган даврлардан бошлаб таниш бўлган. Бу сўз

кейинчалик французча fringues (кийим-кечак, уст-бош) шаклига кирди. Бироқ сўзнинг луғавий изоҳи “французларга тегишли” fringues [10. Б. 96] сўзига тасодифий ўхшашлиги сабабли асл маъно Европада унутилган. Паранжининг аёллар кўчалик устки кийими маъносигаги вазифаси Ўрта Осиёда ислом маданияти доирасида ўзгаришга учраган ва “паранжи” деганда бошга ёпиладиган енгсиз кийим тушуниб келинади [2]. Ҳозирда ҳам Ўзбекистондаги баъзи вилоятларда тўй маросимлари удумини бажаришда паранжи ёпинишади. Шунинг учун ҳам таржимон матнда ўзбек миллатининг дунёқарашига яқин бўлган “чодира” ўрнига “паранжи” сўзини ишлатган.

Хулоса қилиб айтганда, “Самарқанд” асарининг аслият ва бевосита таржимасида шарқ менталитетининг ифодаланишини таҳлил қилиш жараёнида ўрганилган мисолларни беш гуруҳга бўлиш мумкин:

1. Ўттиқод ва удум: динга ўттиқод, шарқликларга хос удумлар, хусусан, меҳмондўстлик жиҳатларини ўз ичига олади.

2. Яхшилик ва ёмонлик: донолик ва жоҳиллик бир-бирига қарама-қарши қўйилади.

3. Тарихийлик ва замонавийлик: ҳокимият ва бошқарув, тарихий деталлар таҳлил қилинади.

4. Ижтимоий ва шахслараро муносабатлар: олим ва подшоҳ, олим ва давлат арбоблари ўртасидаги муносабат ифода этилади.

5. Тарихий жойлар: Самарқанд шаҳри ҳақидаги ривоятлар тавсифи келтирилади.

Мазкур таҳлиллارнинг аслиятда ифодаланган мазмун шарқ менталитетига, унинг руҳиятига мос ўтирилган. Таржиманинг аслиятга яқинлиги таржимоннинг муаллиф услуги ва мақсадини қанчалик ўзлаштирилганлиги билан боғлиқ. Таржимон интерпретацияси эса асар тилини, услубини равоон ўқилишига ёрдам беради. Шарқ менталитетини бадий таржимада қайта яратилишида таржимон интерпретацияси ва ижодий таржима ҳамда мослаштирилган таржима методлари муҳим роль ўйнайди.

Келгусида мазкур соҳадаги тадқиқотларда шарқ менталитетини ифодаловчи фалсафий-бадий матнларни тадқиқ этиш таржимашуносликнинг муҳим вазифаларидан бири, деб ҳисоблаймиз.

АДАБИЁТЛАР

1. Маалуф А. Самарқанд ёхуд Зулматда йўқолган зиёни излаб... /Таржимон А.Кўчибоев. – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2018. – 360 б.
2. Исҳоқов М.М., Ғойиёв С. “Паранжи” нима? (Бир кийим тарихи) // Водийнома, 2019. – № 1. – Б. 9–11. URL: <https://oliymahad.uz/16512>. (Мурожаат этилган сана: 03.07.2021.)
3. Комиссаров В.Н. Теория перевода: лингвистические аспекты. – Москва: Высшая школа, 1990. – 253 с.
4. Морозов М.М. Пособие по переводу русской художественной прозы на английский язык. – Москва: «Валент», 2009. – 336 с.
5. Хухуни Г.Т. Перевод как средство достижения межкультур и ого понимания // психоллингвистика и межкультурное взаимопонимание: Тезисы, доклады X Всесоюзный симпозиум. –Москва: 1991. – С. 314–315.
6. Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Филол. фан. докт. (DsC) дисс...автореф. – Тошкент: 2017. – 56 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдди: 3-жилд. / А.Мадвалиев таҳрири остида. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 687 б.
8. Maalouf A. Samarcande. Editions Jean-Claude Lattès, 1988. – 235 p.
9. Dictionnaire Larousse (définitions, expressions, synonymes tchador n.m. (mot persan) Pièce d'étoffe servant à cacher le bas du visage ou à couvrir la tête des femmes dans certaines const). – Paris: Larousse, 2010. – 1987 p.
10. Rat M. Dictionnaire des expressions et locutions traditionnelles. – P.: Larousse – Bordas, 1999. – 448 p.



УДК: 811.111-811.512

Guldona QO'RG'ONOVA,

Uzbekistan State World Languages 2nd year of master's degree student, Department of English Linguistics

E-mail: guldonaabahriddinova@gmail.com

On the basis of review by PhD, Assoc. Prof., Department of English Linguistics, NUUz, Abdullayeva Nargiza Erkinovna

STUDYING THE SPECIFIC PECULARITIES OF THE PROVERBS

Abstract

To understand foreign countries' languages and cultures people should be aware of the linguistic units of the language, such as proverbs and phraseological units since they show all cultural and language features. When we take into consideration such units, we know a lot about foreign attitudes to something. Proverbs are short sentences that people often quote, which gives advice or tells you something about life as well as they are short, traditional sayings that express some obvious truth or familiar experience; adage; maxim therefore we should study the unique meaning of the proverbs. We can see that proverbs have some similarities and differences with other cultures' sayings, so studying them helps to understand their real meaning and we can contrast with our proverbs.

Key words: adage, maxim, stable-word-combination, wisdom, traditional model, social views, social values.

ИЗУЧЕНИЕ ТИПИЧНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПОСЛОВ

Аннотация

Чтобы понимать языки и культуру других стран, люди должны знать языковые единицы языка, такие как пословицы и фразеологизмы, поскольку они отражают все культурные и языковые особенности. Когда мы принимаем во внимание такие единицы, мы много знаем об иностранном отношении к чему-либо. Пословицы - это короткие предложения, которые люди часто цитируют, которые дают совет или рассказывают вам что-то о жизни, а также короткие традиционные высказывания, выражающие очевидную истину или знакомый опыт; пословица; максима поэтому мы должны изучить уникальное значение пословиц. Мы видим, что пословицы имеют некоторые сходства и различия с высказываниями других культур, поэтому их изучение помогает понять их реальный смысл, и мы можем контрастировать с нашими пословицами.

Ключевые слова: пословица, изречение, устойчивое словосочетание, мудрость, традиционная модель, социальные взгляды, социальные ценности.

MAQOLLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

Annotatsiya

Xorijiy mamlakatlarning tillari va madaniyatlarini tushunish uchun odamlar tilning lingvistik birliklari, masalan, maqollar va frazeologik birliklardan xabardor bo'lishlari kerak, chunki ular barcha madaniy va til xususiyatlarini namoyon qiladi. Bunday birliklarni hisobga oladigan bo'lsak, biz biror narsaga xorijiy munosabat haqida ko'p narsalarni bilamiz. Hikmatlar - bu odamlar tez-tez keltirib o'tadigan qisqa jumlar, ular sizga maslahat beradi yoki hayot haqida biror narsa aytib beradi, shuningdek, ular qandaydir aniq haqiqat yoki tanish tajribani ifodalovchi qisqa, an'anaviy so'zlardir; Shuning uchun biz maqollarning o'ziga xos ma'nosini o'rganishimiz kerak. Maqollarning boshqa madaniyatlar maqollari bilan o'xshash va farqli tomonlari borligini ko'ramiz, shuning uchun ularni o'rganish ularning asl ma'nosini tushunishga yordam beradi va biz o'zimizning madaniyatimizga oid maqollarimiz bilan taqqoslashimiz mumkin.

Kalit so'zlar: maqol, maksim, turg'un so'z birikmasi, hikmat, an'anaviy model, ijtimoiy qarashlar, ijtimoiy qadriyatlar.

Introduction. In old stories among all the assortment and abundance of its poetical importance and shape it is troublesome to discover more curiously and researchable sort than maxims and platitudes. It was the subject of profound think about of researchers in most diverse ideological branches. Most of the researchers concurred that the professional verbs are fables discourse. Where was not as it were the person's point of see but too common people's viewpoint is communicated. Proverbs and idioms play vital part in dialect. They donate emotionality, expressiveness to the discourse. They have certain immaculate etymological highlights that must continuously be taken under consideration in arrange to recognize them from conventional sentences. Proverbs are brief explanations appearing uncondensed frame of the gathered life involvement of the community and serving as routine commonsense images for theoretical thoughts. They are as a

rule educational and picture bearing, an old stories among all the assortment and abundance of its poetical importance and shape it is troublesome to discover more curiously and researchable sort than maxims and platitudes. It was the subject of profound think about of researchers in most diverse ideological branches. Most of the researchers concurred that the professional verbs are fables discoursed. Numerous of them become exceptionally cleaned and there's no additional word in proverbs and platitudes. Summarizing over mentioned. Proverbs, in colorful and distinctive dialect, reflect vital normal social values of each culture. Straightforward and well known, brief and pointed, they are passed on from era to era within the lucid verbal shape and have continuously ended up a component crucial to the prevailing culture of that country. Proverbs have a long history. They are brief and well-polished expressions implanted in philosophical thoughts concerning

distinctive perspectives of life. They are the summary of individuals experience in daily life, so they began from people's way of life and encounter. To be particular, they come from people life, religion, mythology, scholarly works, other dialects, celebrated writers' intelligence, a nation's history and so on.

One of the main tasks of Linguoculturology is to study how various types of cultural values are presented in the linguistic world picture. The analysis of language material made it possible to single out the linguistic units most relevant to cultural values. They are phraseological units, stylistic devices, proverbs and sayings, quotations, aphorisms and literary texts. Let us consider phraseological units expressing cultural values.

One of the universal cultural values widely represented in phraseological units of English, Uzbek and Russian is "promise". In all linguocultures keeping promise is positively evaluated; it is regarded as a quality testifying a person's honour and nobility characterizing him in a very positive way: good, honorable, organized, obligatory, noble, assertive, honest, reliable. "Breaking promise or word" on the contrary is a very negative and shameful trait: bad, dishonest, ignoble, unreliable [2].

Relationships between language and culture are most clearly seen in proverbs. It is accounted for by the fact that a proverb by its very nature is one of the forms of culture. It is a proverb that first and foremost transmits sociocultural information. Proverbs and sayings are considered to be cultural relevant units, since they reflect cultural values and concepts [10]. There are many definitions of proverbs given from different perspectives. I.R. Galperin defines proverbs as "brief statements showing in condensed form the accumulated life experience of the community and serving as conventional practical symbols for abstract ideas" [6]. W. Mieder points out that proverb is "a short, generally known sentence of the folk which contains wisdom, truth, morals, and traditional views in a metaphorical, fixed and memorable form and which is handed down from generation to generation [9]. The definitions specify such features of proverbs as a laconic form, reflection of conventional wisdom and other cultural values.

Many scholars in their definitions emphasize cultural significance of proverbs. Accordingly, C.B. Palmer regards proverbs as cultural texts which fix knowledge, experience and expertise of generations, they manifest basic concepts and, thus reflect the specific cultural knowledge, and associations, which underlie the perception of the world. According to Y. Deng and R. Liu, "proverbs may provide interesting little glimpses or clues to a people's geography, history, social organizations, social views, attitudes. People who live along sea coasts and whose livelihood is dependent on the sea will have proverbs about sailing, about braving the weather, about fish and fishing. In cultures where old age is revered, there will be proverbs about the wisdom of the elders. And in societies where women's status is low, there will be a number of sayings demeaning them"[4].

Literature review. Proverbs and sayings have certain purely linguistic features which must always be taken into account in order to distinguish them from ordinary sentence. Proverbs are brief statement showing in condensed form the accumulated life experience of the community and serving as conventional and practical symbols for abstract ideas [1]. They are usually didactic and image bearing many of them though frequency of repetition have become polished and wrought into verse-like shape, as in the following:

"to cut one's coat according to one's cloth"

"Early to bed and early to rise, (Erta turganga xudo beradi)

"Makes a man healthy, wealthy and wise".

Brevity in proverbs manifests itself also in the omission of connectives, as in: "First come, first served" (Erta borsang et pishar, Kechga qolsang bet pishar).

"Out of sight, out of mind" (Ko'zdan yiroq, ko'ngildan yiroq). But the some features distinguishing proverbs and sayings from ordinary utterances remains their transferred meaning. In other words, one meaning (literal) is the form for another meaning transferred which contains the idea. Proverbs and sayings if used appropriately, will never lose their freshness and vigor. The most noticeable thing about the functioning of sayings, proverbs and catch phrases is that they may be handled not in their fixed form (the traditional model) but with modifications [8]. These modifications, however will never break away from the invariants to such a degree that the correlation between the invariant model of a word combination and its variant ceases to be perceived by the reader [3]. The predictability of a variant of a word-combination is lower in comparison with its invariant. Therefore the use of such a unit in a modified form will always arrest our attention, causing a much closer examination of the wording of the utterance in order to get at the idea thus the proverb "all is not gold that glitters" appears in Byron's "Don Juan" in the following form and environment whereas first the meaning may seem obscure:

"How all needy honorable misters

Each out-at-elbow peer or desperate dandy,

The watchful mothers, and the careful sisters

(Who by the by, When clever, are more handy

At making matches where "it is gold that glitters"

than their he relatives), like flies o'er candy Buzz round the Fortune with their busy battery.

To turn her head with waltzing and with flattery"

Out of the well-known proverb Byron builds a periphrasis the of which is deciphered two lines below: "The Fortune", that is a marriageable heiress. It has already been pointed out that Byron is fond of playing with stable-word-combination, sometimes injecting new vigor into the components, sometimes entirely disregarding the semantic unity of the combination. In the following lines, for instance each word of the phrase safe and sound gets its full meaning.

Numerous proverbs have got their starting from people's life encounter and the meaning of a few words was changing to the adage amid a long period of time without any reporting of this prepare. The state "Make feed whereas the sun shines" [5] showed up from ordinary field-workers' hone. Each rancher saw the truth in these words but when hundreds of individuals started to get it these words in their claim way they realized that this sentence had a few diverse implications and individuals seem utilize it for their claim circumstances. After long time of practicing the strategy of "trial and mistakes" this state got its claim common meaning and got to be a saying. By the same way the state "Don't put all your eggs in one basket" got to be a saying from the viable involvement of exchanging merchants. So we will see that numerous sayings were made in verbal shape and the creator is more often than not obscure. On the other hand numerous proverbs were made by clear people. here are a few cases when ready to learn around the root of a few sayings. For illustration the saying "The Conclusion legitimizes the means" (Каково начало, таковы концы) showed up from the religious convention within the seventeenth century or "golden age". Another illustration may be a adage made by William Shakespeare "An fair story speeds best being doubtlessly told" (Самое лучшее — прямо и простосказанное слово). In interpretation of English sayings into Russian we ought to pay consideration to the meaning of the adage in common and shouldn't continuously interpret them actually. It

is additionally important to keep in mind that totally different dialects individuals utilize distinctive pictures for the expression of the same or comparable contemplations [7]. We would like to quote as an case the well-known adage "Every man to his taste". The strict interpretation of this saying is "Увсякогосвойвкус" and the Russian proportionate of this adage is "Навкусицвет товарищей нет". One more case is "Good dress open all doors" (truly "Хорошая одежда открывает все двери") which compares to the Russian adage "Поодежкевстречают, поумупровожают".

Conclusion. As we can see that some cultures have alternative samples in other cultures since some proverbs do not have appropriate meaning in another languages. In this case, studying proverbs support to have ideas about them, and we can

know deeply the gist of their inner meaning. The proverbs embody the life experiences of ancestors, their attitude to society, history, mood, ethical and aesthetic feelings, and positive qualities. Over the centuries, it has been polished among the people and has taken on a concise and simple poetic form. The proverbs are extremely rich and diverse in terms of subject matter. Colorful proverbs have been written on topics such as homeland, labor, science, friendship, harmony, wisdom, vigilance, language and speech culture, love and affection, as well as negative traits. Proverbs are characterized by a dialectical unity of content and form, often rhyming, sometimes ambiguous, and rich in figurative meanings. Proverbs show whether countries or cultures' attitude to something.

REFERENCE

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent: Vnesh Invest Prom, 2018.
2. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cultural Linguistics. – Tashkent: 2019
3. Abdullayeva N.E. Dictionary of English and Uzbek National Proverbs Containing Graduonyms / Graduonim komponentli ingliz va o'zbek xalq maqollari lug'ati. – T.: Nurafshon business, 2019.- 448 b.
4. Deng, Liu, 1989, p. 47-48
5. Encyclopedia Britannica. Encyclopedia Britannica Inc; <https://www.britannica.com>
6. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Изд.лит. на ин.яз., 1958.
7. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. –М.: Гнозис, 2004. – 390 с.
8. Кунин А. В. Фразеология современного английского языка. М., 1972.
9. Mieder, Wolfgang. Proverbs -A Handbook. Westport, CT; Greenwood Press. 2004
10. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Изд.центр академия, 2007.



УДК: 87.717.7

Дилрабо МАМАТҚУЛОВА,
ТАТУ Қариш филиали мустақил тадқиқотчиси
E-mail: mydilrabo@gmail.com

Фалсафа фанлари доктори, профессор Санжар Чориев тахрири асосида

ҲОЗИРГИ ЗАМОНДА ЁШЛАРНИНГ МИЛЛИЙ ЎЗЛИГИНИ АНГЛАШ КОНЦЕПЦИЯСИ

Аннотация

Ўзбекистон Республикаси ўз мустақиллигини қўлга киритганидан кейин миллий ўзлиқни англаш собиқ иттифок даврида топталган урф-одатларимиз, кадриятларимизни қайта тиклаш ва маънавий меросимиздан баҳраманд бўлиш ҳамда янги адолатли, демократик, ҳуқуқий жамият қуриш учун олиб борилаётган сазой-ҳаракатларда тўла намоён бўлмоқда. Шу ўринда айтиш керакки, ўз халқининг ўтмиши билан бир қаторда бошқа халқлар тарихини ҳурмат қилиш, кадрлаш ҳам ўз-ўзини англаш тушунчаси билан боғлиқ чунки ўзлиқни англаш тор маънодаги тушунча эмас. Ўзлиқни англай олган миллатгина бошқа бир миллатни ҳурмат қилади.

Калит сўзлар: миллий онг, урф-одат, кадриятлар, виждон, диёнат, маҳаллийчилик, гуруҳбозлик, уруғ-аймоқчилик, ҳуқуқий маданият, кадр-қиммат, обрў-эътибор, ор-номус, мотив, ахлоқий фаолият, маданий мерос.

КОНЦЕПЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ В СОВРЕМЕННОМ ВРЕМЕНИ

Аннотация

После обретения независимости понимание национальной идентичности в полной мере отражается в усилиях по восстановлению традиций и ценностей бывшего Советского Союза, использованию нашего духовного наследия и построению нового справедливого, демократического, правового общества. Следует отметить, что уважение к истории других народов, а также к прошлому своего народа также связано с концепцией самосознания, потому что самосознание не является понятием в узком смысле. Только нация, которая понимает себя, уважает другую нацию.

Ключевые слова: национальное сознание, обычаи, ценности, совесть, религия, местничество, сектантство, трайбализм, правовая культура, достоинство, престиж, честь, мотив, нравственная деятельность, культурное наследие.

THE CONCEPT OF NATIONAL SELF-AWARENESS OF YOUNG PEOPLE IN PRESENT TIMES

Abstract

After gaining independence, the understanding of national identity is fully reflected in efforts to restore the traditions and values of the former Soviet Union, use our spiritual heritage and build a new, just, democratic, legal society. It should be noted that respect for the history of other peoples, as well as for the past of one's own people, is also associated with the concept of self-awareness, because self-awareness is not a concept in a narrow sense. Only a nation that understands itself respects another nation.

Key words: national consciousness, customs, values, conscience, religion, localism, sectarianism, tribalism, legal culture, dignity, prestige, honor, motive, moral activity, cultural heritage.

Кириш. “Ўз-ўзини англаш жараёни Ватанга, оилага, эл-юртга бўлган меҳр-муҳаббат билан боғлиқ, ходисалардир. Шахснинг ўз-ўзини англаши, миллий ўз-ўзини англашга олиб келади. Миллий гуруҳнинг шакллани бориши ўз-ўзини англаш орқали намоён бўлади. Ўзини англамаган-ўзлиқини билмайди. Ўзлиқини билиш эса маънавий - ахлоқий масъулиятнинг зарурий шарти ҳисобланади”¹

Шу боисдан ҳам мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ Республикамиз биринчи Президенти Ислоҳ Каримов халқимизнинг миллий онгини уйғотишда ўз-ўзини англаш туйғуси асосий мезонлардан бири [12] эканлигига эътибор қаратди. Ғарб мутафаккирларидан бири Августин “Миллатни уйғотиш унинг тарихини ўрганиш лозимлиги” [2], деб ёзган эди.

Чунки ўтмишини унутган халқнинг бугунги кунини ҳам, келажакни ҳам бўлмайди. Айниқса, мустақилликка эришган халқнинг миллий ўз-ўзини англашида тарихий мероснинг ўрни беихоҳия каттадир.

Биринчи Президентимиз таъкидлаганидек “Ўзлиқни англаш-тарихни билишдан бошланади” [1]. Ўз тарихини унутган халқ маънавиятдан маҳрум бўлади.

Шунининг учун ҳам тарихда ўтган барча мустамлакачилар, қарам қилиб олган халқларни ўз тарихидан, маданиятидан, тили ва динидан, ҳуллас, маънавиятидан маҳрум қилишга ҳаракат қилганлар. Чунки юксак сиёсий маданиятга эга бўлган, миллий онги ривожланган, ўз-ўзини англаб етган халқни жолвда ушлаб туриш, алдаш, ўз эътиқодидан қайтариш умуман мумкин эмас.

Ўз-ўзини англай олмаган инсонда виждон, номус, диёнат булмайди ва ҳар доим ўз манфаатини халқ манфаатидан устун қўйиб яшайди. Бу борада Хусайн Воиз Кошифий ўзининг “Ахлоқ муксиний” асарида: “Виждони, номуси, диёнати бўлмаган киши дунёда ҳамма ёмонликларни қилишга тайёрдир” [3],-деб таъкидлаган эди.

Деярли унутилаётган миллий урф-одатларимиз, анъаналаримиз, удумларимиз, миллий кадриятларимиз ва тарихимизни, не-не улуг зотлар ва алломаларимизнинг муборак номларини тиклаш, бузиб ташланган масжидлар ва мадрасаларни таъмирлаш, асл ҳолига келтириш, миллий гуруҳимизни юксак даражага қўтариш, буларнинг ҳаммаси ўз-ўзини англашнинг маънавий муаммолари жумласига қиради.

Дарҳақиқат миллий ўз-ўзини англаш миллий онгни шаклланиши билан узвий боғлиқдир. Миллий онг эса миллатнинг ўз-ўзини англашини тақозо этади. Ўз-ўзини англаш миллий маънавият ривожланишининг муҳим омили ҳисобланади. Ўз-ўзини англаш ёки маънавият ҳар доим у ёки бу халқнинг тарихий тараққиёти билан боғлиқ, бўлганлиги учун ҳам миллий характерга эга.

Шундай экан ўз-ўзини англаш ва маънавият тушунчалари бир-бири билан алоқадор. Ўзликни англаш маънавиятсиз бўлмайди. Маънавият эса ўзликни англашдан ташқарида, ундан ҳоли тарзда юзага келмайди ва ривожланмайди.

Инсон ҳуқуқий жиҳатдан қанчалик чуқур билим, юксак ҳуқуқий маданият ва маънавиятга эга бўлса, ўз-ўзини англаб етса, маърифий- мафкуравий жиҳатдан ҳам шунчалик мукаммал шаклланган ҳисобланади. Аста-секинлик билан жамият тараққиёти тезлашади, миллат ўзлигини англаш орқали ғоявий-сиёсий жиҳатдан ўсиб, такомиллашиб боради, ёш авлоднинг илмий-маданий савияси, дунёқараши ва тафаккури ўзининг ривожланиш ҳолатига қараб, дунёвий мезонларга жавоб берадиган бўлади.

Шунингдек ҳуқуқий билими, маданияти ва маънавияти ўсган миллат ўз-ўзини англаб етади. Ўз кучи ва имкониятларига ҳолисона баҳо бера олади, маҳаллийчилик, гуруҳбозлик, уруғ-аймоқчилик, таниш-билишчиликка асосланиб иш тутиш ижтимоий фоҳишаларнинг сабаби эканлигини тушуниб олади. Ўзликни англаш фақат ҳозирги давр манфаатлари ва ташвишлари билан ўралиб қолмасдан, истикболни ўйлаб фаолият кўрсатишга унинг режаларини тузиш ва рубёга чиқаришга ҳам даъват этади.

Мотив, ахлоқий фаолиятнинг психологик механизми, яъни элементи ва умуман ҳаракатнинг элементи сифатида унинг мақсад бўлмиш предмет ёки объектга шахснинг муносабатини ифодалайди. Ҳар қандай ҳаракат амалга оширишда индивиднинг эҳтиёжлари ва манфаатларининг акси ҳисобланувчи муаян майл-хоҳишлар ётади. У ҳаракатнинг мазмуни ва унинг амалга ошиш хусусиятига кучли таъсир қилади. Ахлоқ динамикасида мотив энг муҳим ўринлардан бирини эгаллайди.

Баъзи муаллифлар ахлоқни асословчи босқич билан уни амалга ошириш босқичини ажратиб кўрсатадилар.

Ғоялар даврининг ва жамиятнинг мақсади ҳаракат моҳиятини англаш, курашида қарор қабул қилиш, уни

амалга ошириш, амаллари ва воситаларини аниқлашни кўзда тутувчи, бир-бирини ўзаро тақозо этувчи бирин-кетин узиладиган етарлича мураккаб психологик тизимдир.

Ўзининг ушбу хоссасида ғоялар янги қарашларнинг интилишларни муаян мақсадни қўлга киритишни кўзда тутувчи тафаккур моделига эгадир. Ғоялар бир ёклама вужудга келмайди, манфаатлар ёки ахлоқий таъсирлар ва янги фикр билан белгиланади.

Шу жиҳатдан маънавий ахлоқ намоён бўлишининг типик тизимлари бўйича вазиятлар оддий ва мураккаб бўлади. Уларга ва шунингдек, шахснинг

психик ҳолатига боғлиқ ҳолда, қарор ҳар-хил вақт оралиғида, турли даражалари билан, алоҳида ҳолларда эса мотивсиз қабул қилинади.

Агар ахлоқнинг фаолият босқичи бирон бир қарор (ҳукм) қабул қилиниши билан белгиланса, у ҳолда амалга ошириш босқичида эса қарорни ҳаракатга айлантириш мазмунига эга бўлади. Бунда инсоннинг психик руҳий сафарбарлиги қабул қилинган қарорнинг бажарилишига мўлжалланган мақсадга эришиш жараёнида психик фаолият етарлича юқори ва аниқ бир мақсадга эришиш жараёнида олдиндан қилинадиган ҳаракатлар айти пайтдаги ҳолатини белгилаб бериш билан ҳарактерланиши мумкин. Дарҳақиқат инсон юксак маънавиятга эга бўлгандагина ҳар қандай вазиятда ҳам ўзини бошқара олади, ортиқча, ўринсиз хатти-ҳаракатлар қилмайди, бинобарин, у имкониятини чуқур хис этган ҳолда ўзига муйаян ва қатъий муносабатини билдиради.

Маълумки, юксак миллий маданият, маънавият ҳамма вақт жаҳон халқларини бир-бирига яқинлаштирувчи энг муҳим восита бўлиб келган. Шунингдек, миллатларнинг ўзлигини англаши урф-одатлар анъаналарининг давомийлиги, узлуксизлиги ҳамда тараққиётини ҳам таъминлашга хизмат қилади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, маънавий баркамол шахс юксак савияда тарбия ҳар қандай вазият ва шароитда ҳам ўз инсоний сифатларини йўқотмайди. Ўзида ахлоқий сифатларни мужассамлаштириш ва уларга амал қилиш инсонийликни муҳим белгиларидан бири ҳисобланади. Одамийликни асл маъноси ҳам юксак ахлоқий фазилатларга эга бўлиш билан ифодаланади. Шунинг учун ҳам инсонни ахлоқий фазилатларини ўрганиш шу куннинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда.

АДАБИЁТЛАР

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. Каримов И. Имон ва ислом. - Т.: “Фан” 1991й. 289 б.
2. Августин Блаженный. Творения: В 4 т. Т.4: О Граде Божием. Книги XIV-XXII. Об истинной религии (сборник). М.: Алтейя. С. 400-401.
3. Кошифий Ҳусайн Воиз. Ахлоқи Муҳсиний. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010.
4. Ғаззолий Абу Ҳомид. Кимиёи саодат. -Т.: «Адолат»; 2005.
5. Жабборов Исо. Руҳий Олам. Жаҳолат ва Камолот. - Т.: Ўзбекистон 1988. 231 б.
6. Эрматов М. Этногенез и формирование предков узбекского народа.-Т.: Узбекистан. 1968. – С. 180.
7. Len Woods. Handbook of World Religions. Barbour Publishing, Ohio. 2008. – 266 p.
8. Форобий Абу Наср. «Фозил одамлар шаҳри», -Т.: «Халқ мероси», 1993
9. Кайковус. Қобуснома. – Т.: Истиқлол, 1994.
10. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик / Дарслик. – Т.: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2010.
11. Ғозиев Э. Муомала психологияси. –Т.: “Университет”. 2001.
12. Каримов.И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент, «Ўзбекистон», 2012 Каримов.И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент, «Ўзбекистон», 2012



UDK: 811.111(811.512)

Sabokhat MUKHAMMADOVA,

National University of Uzbekistan Department of English linguistics 2nd year masters' degree student

On the basis of the review by Assoc. Prof. Dosbaeva N.T., NamSU

STRUCTURAL PECULIARITIES OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS ABOUT WEALTH AND POVERTY

Abstract

The following article is devoted to the analysis of structural aspects of proverbs in English and Uzbek, which are about wealth and poverty. Proverbs that are regarded as a unit of language that enriches and completes the language, and they are valued and understood differently in each language. Although these two languages are quite different from each other, they also have similarities. In this article some of their distinctive features are identified by dividing them into separate types. Further, some examples of each type of proverbs are given by means of proverbs on the subjects of wealth and poverty which are considered the main purpose of this article. This is the main purpose of the article. That is, to study the structure of proverbs in English and Uzbek through proverbs about wealth and poverty. In the process of analysis in the article one can meet the different approaches by many linguists as well as learn several proverbs concerning wealth and poverty.

Key words: proverbs, paremias, element, component, simple structure, complex structure.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BOYLIK VA KAMBAG'ALLIK HAQIDAGI MAQOLLARNING TARKIBIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida boylik va kambag'allik haqidagi maqollarning tarkibiy xususiyatlariga bag'ishlangan. Maqollar tilni boyitib, to'ldiradigan til birligi bo'lib, ular har bir tilda turlicha yoritiladi va tushuniladi. Bu ikki til bir-biridan ancha farq qilsa-da, o'xshash tomonlari ham mavjud. Ushbu maqolada ularning ana shu xususiyatlari ularni alohida turlarga bo'lish yo'li bilan ajratilib, boylik va kambag'allik haqidagi maqollar orqali maqollarning har bir turiga misollar keltiriladi. Bu maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ya'ni ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning tarkibiy jihatlarini boylik va kambag'allik haqidagi maqollar orqali o'rganish. Tahlil qilish jarayonida maqolada ko'plab tilshunoslarning turlicha yondashuvlarini uchratish va boylik hamda kambag'allik haqidagi ko'plab maqollarni o'rganish mumkin.

Tayanch so'zlar: maqollar, paremiyalar, element, komponent, sodda tuzilish, murakkab tuzilish.

СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВ О БОГАТСТВЕ И БЕДНОСТИ

Аннотация

Следующая статья посвящена структурным аспектам пословиц на английском и узбекском языках о богатстве и бедности. Пословицы – это единица языка, которая обогащает и дополняет язык, и их ценят и понимают по-разному на каждом языке. Хотя эти два языка сильно отличаются друг от друга, они также имеют сходство. В данной статье эти их особенности разбиты на отдельные типы, а примеры каждого типа пословиц приводятся с помощью пословиц на тему богатства и бедности. Это основная цель данной статьи. То есть организовать структурные аспекты этих статей на английском и узбекском языках с помощью пословиц о богатстве и бедности. В процессе анализа статьи можно встретить разные подходы многих лингвистов и выучить множество пословиц.

Ключевые слова: пословицы, паремы, элемент, компонент, простая структура, сложная структура.

Introduction. It is difficult to imagine the development of the country and society at the level of modern requirements without science. Fundamental research plays an important role in the development of science. It is through them that new knowledge is acquired and theories are formed, creating a solid foundation for future applied research and innovation. On December 30, 2016, President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev met with leading scientists of the country. He noted that today, along with all other areas, science needs to be raised to a new level, because it is difficult to solve current problems without science. He noted that the full support of the industry and scientists is one of the priorities of our state. Doing science, making new discoveries and inventions is like digging a well with a needle, the President said [10].

